

OQILXON IBROHIMOV, JAMIL SADIROV

MUSIQA

7-sinf uchun darslik

Qayta ishlangan 4-nashri

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan*

**G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2007**

85.31я 721

I 14

T a q r i z c h i l a r:

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetining dotsenti
Qo'ldosh MA'MIROV

Respublika Ta'lim markazi «Musiq, san'at va mehnat ta'limi» bo'limi
boshlig'i Munojot ABRALOVA

Ibrohimov Oqilxon, Sadirov Jamil

Musiq: 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 4-nashri. — T.: G'.G'ulom
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.—176 b.

BBK 85.31 я 721

I-S $\frac{4905000000 - 3}{M 352 (04) - 2007}$ reja 2007

ISBN 978-9943-03-075-6

© O.Ibrohimov, J.Sadirov. G'afur
G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyi, 2007-y.

SO‘ZBOSHI

Aziz o‘quvchilar, istiqlool sharofati ila ko‘p asrlik musiqiy merosimizga milliy-ma‘naviy qadriyatlarimiz qatorida alohida e‘tibor berila boshlandi. Endilikda Siz ham xalqimizning ajoyib, xilma-xil va bir-biridan go‘zal mahalliy musiqiy an‘analaridan, mumtoz musiqaning yuksak durdonalari bo‘lmish maqom namunalaridan ma‘naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo‘lish imkoniga ega bo‘ldingiz.

Buning uchun Siz o‘zingizda kuy-ohanglarning sof buloqlari bo‘lgan xalq kuy-qo‘shiqlari-yu mumtoz maqomlarni qalb ila tinglash madaniyatini, ularni zarur darajada ijro eta olish malakalarini hosil etmog‘ingiz kerak. Shundagina siz iste‘dodli ajdodlarimiz ijodi bois qadimdan davom etib kelayotgan boy badiiy an‘analarimiz silsilasiga ma‘nan bog‘lanishga erisha olasiz. Zero, milliy musiqa xalqimiz boy ma‘naviyatining, barkamol ruhiyatining sadolardagi badiiy go‘zal ifodasi va, ayni paytda, yangi, Buyuk Davlat bunyodkori bo‘lmish jamiyatimizning ruh quvvati va jon ozig‘idir.

Aziz o‘quvchilar, qo‘lingizdagi darslik sizga xalqimizning ana shunday qadimiy va doimo navqiron bo‘lgan ajib navolarini qalbingizga jo qilishda ko‘mak beradi, degan umiddamiz. Shu bilan birga, bu darslik sizlarga diyorimizning turli vohalarida yuzaga kelgan mahalliy musiqiy an‘analari bilan atroflicha tanishish imkonini ham beradi.

Bu an‘analar esa uzoq davrlar mobaynida shakllangan bo‘lib, ular xalqimizning turli sharoitlardagi turmush tarzi, mehnat mashg‘ulotlari, turfa marosimlari va bayramlari kabi jarayonlar bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Ushbu jihatlarni batafsil o‘rganish maqsadida o‘quv yilimizning birinchi choragida Surxondaryo — Qashqadaryo va Buxoro—Samarqand musiqa uslublarni o‘rgansak, ikkinchi chorak davomida Xorazm va Farg‘ona—Toshkent musiqa uslublarni o‘zlashtiramiz, uchinchi va to‘rtinchi choraklarda esa Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona—Toshkent maqom yo‘llarini o‘rganamiz.

Dars davomida berilgan mavzu bo‘yicha suhbatlar uyushtiriladi. Shuningdek, musiqa tinglash, ovozda aytim mashqlarini bajarish, qo‘shiq kuylash kabi faoliyat turlaridan ham keng foydalaniladi.

Har bir chorak yakunida berilgan musiqa lug‘ati bilim doirangizni kengaytirib borishingizda qo‘l kelishi mumkin.

Darslikdan unumli foydalanish uchun quyidagi shartli belgilarni eslab qoling:



— musiqa tinglash.



— aytim mashqlari.



— qo‘shiq kuylash.



— notaga qarab kuylash.



— mustaqil o‘qish.



— musiqa savodi.



— savol va topshiriqlar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Abdulla Oripov so'zi

Mutal (Mutavakkil) Burhonov musiqasi

Tantanavor

f
Ser - qu - yosh, hur o'l - kam, el -

ff
ga baxt, na - jot, Sen o' - zing do'st - lar - ga

p
yo'l - dosh, meh - ri - bon! Meh - ri - bon! Yash - na -

f *mf*
gay to a - bad il - mu fan, i - jod. Shuh - ra - ting por - la -

f *ff*
sin to - ki bor ja - hon! Ol - tin bu

p *ff*
vo - diy - lar, jon O'z - be - kis - ton. Aj - dod -

lar mar-do - na ru - hi sen-ga yor! U-lug'

ff xalq qud - ra - ti jo'sh ur - gan za-mon, *f* O-lam -

mf ni mah-li-yo ay - la - gan di - yor! *f* Bag'-ri

2. gan di - yor.

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
 Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
 Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
 Shuhrating porlasin toki bor jahon!

N a q a r o t :

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
 Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
 Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
 Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
 Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
 Istiqlo'l mash'ali, tinchlik posboni,
 Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

N a q a r o t

I CHORAK

SURXONDARYO — QASHQADARYO, SAMARQAND — BUXORO VOHALARINING MUSIQIY USLUBLARI

SURXONDARYO — QASHQADARYO MUSIQA USLUBI HAQIDA TUSHUNCHA



Surxondaryo — Qashqadaryo musiqa uslubi deganda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududida asrlar davomida shakllangan barcha musiqiy-badiiy an'analar tushuniladi. Bu an'analar mehnat aytimlari, mavsumiy marosim qo'shiqlari, cho'ponlar ijodi, baxshilar san'ati va xalq ijodiga oid yana ko'plab aytim va cholg'u kuylaridan tashkil topgan. Shuni ham aytish kerakki, musiqiy an'analarning kelib chiqish negizlari qadimiy davrlarga taalluqli bo'lib, ular turli vaziyatlarda, xalqning turmush tarzi bilan bog'liq turfa ko'rinishlarda, xususan, mehnat jarayonlarida, oilaviy sharoitda o'tkaziladigan urf-odat va marosimlarda, ommaviy sayil va tantanalarda yuzaga keladi.

Surxondaryo — Qashqadaryo hududlarida yashovchi mahalliy aholi uzoq davrlardan buyon chorvadorlik va dehqonchilik mehnati bilan shug'ullanib keladi. Shu bois ham bu yerlarda mehnat jarayonlari bilan bog'liq aytim va cho'pon kuylari juda ko'plab ijod etilgan. Dastlab iste'dodli shaxslar tomonidan (yakka yoki jamoa ishtirokida) aytilib, so'ngra el orasida og'izdan og'izga o'tib ommalashgan mehnat qo'shiqlari bizga qadar xalq xotirasida va mehnat amaliy tajribasi faoliyatida saqlanib kelindi. Bundan tashqari, mavsumiy marosim, ommaviy bayram va xalq sayillari («Navro'z bayrami», «Lola sayli») qo'shiqlari hamda qarsak — o'yin aytimlari va yana ko'plab ommaviy qo'shiq kuylari o'tmishdan bizning davrimizga meros bo'lib qoldi.

Musiqiy merosning ulkan qismi bo'lgan dostonlarni baxshilar o'z xotiralari va ijodlarida saqlab, ijro etib kelmoqdalar.

Shuningdek, Surxondaryo — Qashqadaryo an'anaviy cholg'ulari qatorida do'mbira, qo'biz, cho'pon nay, sibiziq, changqobuz va doyralar uzoq o'tmishdan buyon mahalliy aholi orasida ardoqlanib, ularda turfa kuylar ijro etib kelinmoqda.



Bulardan tashqari yana bir qator rubobsimon, chang (arfa) simon va urma — zarbli cholg'ular qadimda musiqa amaliyotida qo'llanganligini ashyoviy manbalar orqali bilib olishimiz mumkin.

Xususan, ko'hna Ayritomdan topilgan toshxatada ana shunday cholg'ulardan ayrimlarining tasviri aks etgan bo'lib, bunday sozlar O'rta asrlar musiqasida ham keng qo'llanilgan. Biroq ular bizning davrimizgacha yetib kelmagan.




Do'mbira cholg'usi Surxondaryo — Qashqadaryo mahalliy musiqasida keng joriy etilgan sozlardan bo'lib, ayniqsa baxshi va cho'ponlar tomonidan sevib ijro etiladi.

● **Musiqatlash.** «Do'mbiram» qo'shig'ini tinglab, uning badiiy jihatlari tavsiflashga harakat qiling.

DO'MBIRAM

O'rtacha

Baxshi aytimi




Us- ta- lar-ga bu-yur- gan- man, yo-g'och qo-vur-g'ang

si-yir- gan-man, Olt oy tu-rib boq-tir-gan-man,

ol- ma cho'p- dan chop- tir- gan- man,


he...



Shoberdi Baxshi Boltayev

▲ **Aytm.** Ovozingizni sozlash uchun quyidagi mashqlarni bajaring (kuylang):

DO MAJOR TUZUGI



△ **Qo'shiq kuylash.**

O'ZBEKISTON — ONAJON

Qambar Ota she'ri

Muhammad Otajonov musiqasi

Tez



Yer, os - mon-ning o - ra - si, O-lam-ning eng



sa - ra - si, Av-lod me-ros Va-ta - nim - Qad-ri ba-land

Naqarot:




bo's-to - nim. O - na - jon O'z - be - kis - ton,



jo - na-jon O'z-be - kis - ton.



O - na - jon O'z-be - kis - ton,



Yer, osmonning orasi,
Olamning eng sarasi,
Avlod meros Vatanim -
Qadri baland bo'stonim.

Saxovatli, fidokor,
Dunyoda eng baxtiyor.
Sodiqlikda bolangga
Tanilgansan olamga.

Oy husnda yetolmas,
Quyosh shaydo, ketolmas,
Ko'k toqingda yulduzlar,
Baxt taratar kunduzlar.

Bir yoningda Jayhundir,
Bir yoningda Sayhundir.
Mehringdir nur tarami,
Bag'ring dillar oromi.

Himmati hayotga teng,
Insonparvar, bag'ri keng,
Onajon O'zbekiston,
Jonajon O'zbekiston.

Topshiriqlar

- ? 1. Surxondaryo — Qashqadaryo an'anaviy musiqa cholg'ularini ayting.
2. «O'zbekiston — onajon» qo'shig'ining she'riy bandlarini yod oling.

MEHNAT QO'SHIQLARI

Surxondaryo — Qashqadaryo musiqa uslubida mehnat jarayoni bilan bog'liq qo'shiqlar salmoqli o'rin tutadi. Bu turdagi qo'shiqlar aholining qadimgi davrlardan buyon shug'ullanib kelayotgan chorvachilik va dehqonchilik kasblari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan.

Chorvachilikka doir qo'shiqlar (aytimlar) asosan «Sog'im qo'shiqlari»dan iborat bo'lib, ular qoramol, biya, tuya, echki, qo'y kabi uy hayvonlarini sog'ish paytida kuylanadi. Bunda «Xo'sh-xo'sh» aytimi qoramolni sog'ishda, «Turey-turey» va «Churey-churey» aytimlari qo'y-echkilarni sog'ishda kuylanadi. Ushbu aytimlar sog'ilayotgan jonivorlarni tinchlantirish, erkalash va ularni iydrib ko'proq sut sog'ib olish maqsadlarida qo'llaniladi.

Cho'ponlar ijodida cholg'u kuylari ko'proq o'rin egallaydi. Bu kuylar asosan sibiziq va do'mbira sozlarida ijro etiladi.

Yuqorida aytilganidek, do'mbira sozi nafaqat baxshilar, balki cho'ponlar tomonidan ham sevib ijro etiladi. Cho'ponlar bu cholg'u uchun ko'plab «Cho'poncha» nomli do'mbira kuylarini to'qiganlar. Hatto, cho'ponlar mehnatiga ko'mak beruvchi maxsus kuylar ham ijod etilgan.


Masalan, qo'ylarni haydash lozim bo'lganda «Qo'ylarni sudrash», ularni bir o'tloqdan boshqa bir o'tloqqa ko'chirishda «Qo'ylarni ko'chirish», yaylovdagi qo'y podalarini bir joyga yig'ishda «Qo'ylarni yig'ish» kabi shartli darakchi kuylar chalinadi ¹.




QO'YLARNI KO'CHIRISH



¹ Batafsil ma'lumot uchun quyidagi adabiyotga qarang: Ф . К а р а м а т о в . «Узбекская домбровая музыка». Ташкент, 1962. Стр. 12-31.



QO'YLARNI YIG'ISH



Dehqonchilik kasbi bilan bog'liq mehnat jarayonida yuzaga kelgan qo'shiqlar «Qo'sh haydash», «Xo'p hayda», «Mayda, mayda», «Yozi» kabi nomlar bilan atalib kelinadi. «Qo'sh haydash» qo'shig'i yer haydash paytida ho'kizga qo'shilgan omochni boshqarib borayotgan dehqon tomonidan aytilsa, «Yozi» aytimi hosilni o'rish paytida, «Xo'p hayda» va «Mayda, mayda»lar esa bug'doy yoki arpa poyalarini xirmonda ot va ho'kizlar yordamida yanchish vaqtida xirgoyi qilingan.

Dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarning boshlanishida «Shox moylar» marosimi o'tkazilgan. Bu marosimning boshlanishi

erta bahor fasli, ya'ni yerni dastlabki haydash vaqtiga to'g'ri keladi. Marosimda qishloq ahli yig'ilib, ho'kizlarning shoxlarini «Navro'z» bayramiga atab pishirilgan bo'g'irsoq yog'i bilan moylashgan hamda qishloq keksalaridan biri Bobodehqon bo'lib, dalaga birinchi qo'sh solgan. Ana shu vaqtda marosimda hozir bo'lganlar «Shox moylar» qo'shig'ini kuylashgan.

▲ Aytim. Ovoz mashqlari.

a)



b)



h.k.

d)





YURTGA SADOQAT

Safar Barnoyev she'ri

Habibullo Rahimov musiqasi

O'rtacha

Yurt-ga sa-do-qat qo-ni-miz-da bor,

Meh-ru o-qi-bat jo-ni-miz-da bor. Qu-tu ba-ra-


ka, meh-mon-ga hur-mat Yoy-gan das-tur-xon,

no-ni-miz-da bor. Sher yurt-ning sher-dil

o'g'-lon-la-ri-miz, Me-tin, mus-tah-kam qo'r-g'on-la-ri-miz.

Yur-sak o't chaq-nar iz-la-ri-miz-dan, Ba-ho-miz so'-rang

qiz-la-ri-miz-dan, qo'r-g'on-la-ri-



Yurtga sadoqat qonimizda bor,
 Mehr-u oqibat jonimizda bor.
 Qut-u baraka, mehmonga hurmat
 Yoygan dasturxon, nonimizda bor.

So‘zimiz butun, o‘zimiz butun,
 Mardona topgan tuzimiz butun.
 Butunlik asli, maqtansak arzir,
 Bobolar ekan donimizda bor.

Sher yurtning sherdil o‘g‘lonlarimiz,
 Metin, mustahkam qo‘rg‘onlarimiz.
 Yursak o‘t chaqnar izlarimizdan,
 Bahomiz so‘rang qizlarimizdan.

Biz yurtning adl ustunlarimiz,
 Qo‘limizdadir xush kunlarimiz.
 Sher yurtning sherdil o‘g‘lonlarimiz,
 O‘zbekistonning qo‘rg‘onlarimiz.

&

Musiqqa savodi. Intervallarni eslang. **Prima.** Musiqani tashkil etuvchi tovushlar bir-biriga nisbatan ma’lim oraliqda joylashgan bo‘ladi. Ana shu oraliq lotinchada «interval» deb ataladi. Tovushlarning oralig‘i esa turlicha bo‘lishi mumkin. Bularni farqlash uchun prima (birinchi), sekunda (ikkinchi), tersiya (uchinchi) kabi maxsus atamalar qo‘llaniladi.

Prima intervali lotin tilida «birinchi» degan ma’noni ifodalaydi. Shuning uchun uning shartli ifoda belgisi «1» raqamidir. Bu intervalni hosil qilish uchun bir pog‘onadagi tovushni ikki marotaba qaytarish (ya’ni, sadolantirish) kifoyadir.



BINAFSHA

O‘zbek xalq qo‘shig‘i



Bi-naf- sha-lar o - chil - di, yer-ga bo-dom so-chil-di .

Sekunda intervali. Agar bir tovushda turib yuqoriga yoki pastga qarab bir pog'ona «qadam» tashlansa, sekunda intervali hosil bo'ladi. Sekunda «ikkinchi» degan ma'noni bildirib, «2» raqami bilan belgilanadi. Prima va sekunda intervallari o'zbek xalq qo'shiq va kuylarida juda keng qo'llaniladi.



Tersiya intervali. Tersiya (*lot.*) «uchinchi» degan ma'noni bildirib, u uch pog'ona masofada joylashgan ikki tovush nisbatini anglatadi. Bunday nisbatdagi tovushlarni xohlagan notamizdan yuqoriga va pastga qarab tuzishimiz mumkin.



EY MEHRIBONIM


O'zbek xalq qo'shig'i



RO'MOLIM BOR

O'zbek xalq qo'shig'i





Savol va topshiriqlar

- ?
1. Mehnat qo'shiqlarining qanday turlarini bilasiz?
 2. «O'zbekiston — onajon» qo'shig'ini to'liq holda kuylang.
 3. «Yurtga sadoqat» qo'shig'ining she'rini yod oling.

SURXONDARYO — QASHQADARYO DOSTONCHILIK AN'ANALARI

Surxondaryo — Qashqadaryo musiqa uslubining muhim qismini dostonchilik an'analari tashkil etadi. Doston adabiy - musiqiy asardir. Uning tarkibida nasriy va nazmiy (she'riy) qismlar bo'lib, ular mazmunan o'zaro mushtarak bo'ladi.

Doston ijrochilarini *s h o i r* yoki *b a x s h i* deb yuritadilar. Baxshilar san'atida so'z ustasi, qo'shiq kuylovchisi va soz (do'mbira) cholg'uchisi birlashgan bo'ladi. Binobarin, baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini mahorat bilan badiiy so'zlab hikoya etsalar, she'riy bo'laklarini qo'shiq shaklida maxsus ichki («bo'g'iq») ovoz bilan kuylaydilar va bunda do'mbira sozidan jo'rnavoz sifatida foydalanadilar.

Dostonlarni ichki ovozda kuylash uslubi qadimiy an'ana bo'lib, bunday tarzda kuylash uchun baxshilarda maxsus ijroviy malakalar hosil etiladi. Baxshilarni tarbiyalab yetishtirishda esa «ustoz - shogird» maktabi qo'llaniladi. Bu shunday maktabki, unda baxshi bo'lish

istagidagi talabgor ustoz - baxshiga o'quvchi - shogird tushadi. Shundan so'ng u ko'p yillar (5-10 yil) davomida ovozda kuylash, do'mbira chertish kabi ijrochilik mahoratlarini o'rganish bilan birga yana «Alpomish», «Avazxon», «Go'ro'g'li» kabi dostonlarni ham yod oladi, ularni aytib berish uslublarini o'rganadi.

Surxondaryo — Qashqadaryo musiqa uslubida dostonchilikning ikki yirik markazi vujudga kelgan. Bu Shahrisabz va Sherobod dostonchilik maktablaridir.

Abdulla Nurali o'g'li va Islom Nazar o'g'li kabi shoirlar Shahrisabz dostonchilik maktabining yirik namoyandalari bo'lsa, Shernazar Beknazar o'g'li, Mardonqul Avliyoqul o'g'li, Umar Safar o'g'li, Normurod baxshilar esa Sherobod dostonchilik maktabining mashhur vakillaridir.

Dostonlarni ijro etish mavsumi asosan kech kuzda, qishloq ahli dehqonchilik bilan bog'liq yig'im-terim ishlarini tugatgandan so'ng boshlanib, to'erta bahorga qadar davom etadi. Odatda, baxshilar mahalliy aholi tomonidan maxsus uyushtirilgan dostonchilik kechalarini o'tkazish uchun qishloq xonadonlaridan biriga taklif etilgan. Bu xonadonga mahalla ahli, qo'ni-qo'shnilar ham yig'ilishib, baxshining doston ijrolarini tinglashgan. Bunday kechalar bir necha kungacha davom etishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari baxshilarni oilaviy bayram, to'y marosimlari va boshqa tantanalarni o'tkazishga ham taklif etganlar.


Dostonlarni kuylash tartib-qoidalariga ko'ra, avvalo, termalar aytiladi.

Terma - biror bir doston ijrosidan oldin baxshi tomonidan kuylanadigan aytim bo'lib, bunda baxshi o'z bisotida bor dostonlarni qisqacha ta'riflaydi va shu tariqa tinglovchilarga qarata «Qay dostondin aytayin», deb murojaat etadi. Tinglovchilar tanlovi, xohish - ixtiyori ham sabab bo'lib, baxshi o'z bisotidan bir dostonni kuylashni boshlaydi.

Musiqa tinglash.

QAY DOSTONDIN AYTAYIN

Baxshi termasi





Ah,



Ter-ma-ni qo' - yay-lik, ay-tay - lik dos-ton, ter-ma-ni



qo'-yay-lik, ay-tay-lik dos - ton, qu-loq sol-sang



yi-g'il-gan qa-dir-don, Cham-bil bel-di kat-tada-g'i a-



da - ti, Olamga mashhurdir Go'r o'g'li sulton,



o-lam-ga mash-hur-dir Go'r - o'g' - li sul-ton,



Go'r o'g'-li-dan ay-tay - lik - mi bir su - xan?



E ...

Termani qo'yaylik, aytaylik doston,
 Quloq solsang, yig'ilgan qadrdon,
 Chambilbeldi kattadag'i adati,
 Olamga mashhurdir Go'ro'g'li sulton.
 Go'ro'g'lidan aytaylikmi bir suxan?

Musiqa savodi: Intervallar haqidagi bilimingizni mustahkamlang.

K v a r t a i n t e r v a l i. Kvarta — lotin tilida «to'rtinchi» degan ma'noni bildirib, to'rt pog'ona oralig'ida joylashgan ikki tovush nisbatini anglatadi. Kvartaning shartli belgisi «4» raqamidir. Bu intervalni berilgan tovushdan yuqoriga va pastga qarab hosil etish mumkin:



Kvarta intervali o'zbek xalq qo'shiq va kuylarida juda keng qo'llaniladi. Shuningdek, «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi»da ham kvarta intervali qo'llanilgan.

ZUV-ZUV BORAG'AY

O'zbek xalq qo'shig'i



HEY, LOLA

O'zbek xalq qo'shig'i





«BOYSUN» FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

«Boysun» folklor-etnografik ansambli¹ Surxondaryo – Qashqadaryo viloyatlari ko‘hna xalq musiqa an‘analarini atroflicha o‘rganib, ularni qayta tiklayotgan hamda sahna madaniyati orqali targ‘ib qilayotgan ijodiy jamoadir. Xususan, ansambl ishtirokchilari dehqonlarning yil fasllariga bog‘liq mehnat aytimlarini («Mayda-yo, mayda», «Yanchiq», «Ho, zan-zan» va b.), mavsumiy – marosim qo‘shiqlarini («Navro‘z», «Lolajon», «Hey, lola» va b.), turli bayram, sayil va o‘yin – aytimlarini («Kim oladi-ya, shuginani-ya», «Ha-ha-ha», «Kelgin, yor, o‘ynaylik» va b.) katta ishtiyoq va mahorat bilan ijro etadilar.




¹Ushbu ansambl Surxondaryo viloyati, Boysun tuman madaniyat uyi qoshida tashkil qilingan bo‘lib, dastlab «Shalola» xalq ashula va raqs ansambli deb nomlangan edi.

KIM OLADI-YA, SHUGINANI-YA

Xalq qo'shig'i

M.M. ♩ = 116

Hamma:



Birov:




Hamma:



Dehqonchilik mehnatining boshlanishi bahor fasliga to'g'ri keladi. Bu faslda an'anaviy «Navro'z» bayrami va lola-gullar unib-o'sishi bilan bog'liq sayillar o'tkaziladi. Xususan, «Lola sayli»da qir-adirlarga sayr qilinib, quchoq-quchoq lola terilgan va u yoshlik, go'zallik va bayram ramzi sifatida maxsus aytimlarda kuylangan. Bu an'ana hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda.

▲ **Aytim.** Ovoz mashqlarini bajaring.

a) **Shoshmasdan**



b)




△ **Qo'shiq kuylash.**

«EY NOZANIN»

Muqimiy g'azali

Xalq ashulasi

M.M. ♩ = 88-92



Oq - shom-la - ri (yo) uy-qum kel - may (o)

to'lg'o na-man (o).

Pa-ri - lar - dek o - chib yu - zing,

ni-hon bo'l-ding (o), pa-ri - lar -

dek o-chib yu-zing ni-hon

bo'l-ding, Xud - ba - xud -

ba (o) rash-kim ke - lib (o)

qiz - g'o - na-man (o).

Ey, Nozanin, ishqing bilan devonaman,
Oqshomlari uyqum kelmay, to'lg'onaman.

Parilardek ochib yuzing, nihon bo'lding,
Xudba-xudba rashkim kelib qizg'onaman.

- ?
1. Surxondaryo — Qashqadaryo musiqa uslubi haqida gapiring.
 2. Surxondaryo — Qashqadaryo an'anaviy musiqa cholg'ularini aytib bering.
 3. Dehqonchilik qo'shiqlari haqida tushuncha bering.
 4. Mehnat qo'shiqlarining yana qanday turlarini bilasiz?
 5. Baxshilar haqida nimalarni bilasiz?
 6. Kvarta intervalini qisqacha izohlab, uni «sol» tovushidan yuqoriga qarab tuzing.

BUXORO — SAMARQAND MUSIQA USLUBI HAQIDA TUSHUNCHA

Buxoro — Samarqand musiqa uslubi deganda Buxoro va Samarqand shaharlari va viloyatlari hududlarida qaror topgan musiqiy an'analar tushuniladi. Diyorimizning qadimiy madaniyat maskanlari bo'lmish bu vohalarda xalq qo'shiqlari, ashulalari, cholg'u kuylari, qarsak o'yin — aytimlari hamda kasbiy musiqaga doir dostonchilik, sozanda san'ati va maqom namunalari keng o'rin tutadi.

Mazkur uslubning o'ziga xos jihatlaridan biri — ikki tillilik, ya'ni o'zbek va tojik tillari an'anasining namoyon bo'lishidir. Bu holat shu sarhadda yashab, faoliyat ko'rsatgan ko'pgina shoirlar, jumladan, Mujrim Obid, Abdullo Mulham Buxoriy, Fitrati Zardo'zi Samarqandiy, Muznib Shavkatiy Kattaqo'rg'oniylar ijodida, shuningdek, ikki tilda ijro etib kelinayotgan o'zbek va tojik xalqlarining yuksak mumtoz musiqa namunasi bo'lgan Shashmaqom (Buxoro maqomlari) turkumida o'z aksini topgan.

Ikki tillilik an'anasi xalq musiqasida o'zgacha shakllarda aks etadi. Chunonchi, ayrim xalq qo'shiqlarini ayni vaqtning o'zida ham o'zbek, ham tojik tillarida kuylash mumkin. Odatda, qo'shiqning bndlari o'zbek tilida, naqarotlari esa tojik tilida, ba'zan aksincha ham bo'ladi. Bundan tashqari, ayrim xalq qo'shiqlarini o'zbek yoki tojik tillarida kuylash imkoni mavjuddir. Shuningdek, faqat bir tilda — yo o'zbek, yo tojik tilida kuylash uchun ijod etilgan xalq qo'shiqlari ham uchraydi.



Milliy liboslar.



BOG'BON QIZ

Xalq qo'shig'i

Shoshmasdan

Bu tog'-lar ba - land tog' - lar, g'a-rib yo'-li -
 ni bog'-lar. Bu tog'-lar ba - land tog'-lar,
 g'a-rib yo'-li - ni bog'-lar.



DILBAR

Xalq qo'shig'i

O'rtacha tez

Di - la - ma bur -
 di dil - bar, O - ro - mi jo - nim dil - bar,
 Sar - vi ra - vo - nim dil - bar, Shi-rin za - bo -
 nim dil - bar, Mo'r-cha mi - yo -
 nam dil - bar.




Xalq kundalik turmush tarzida, bayram-u to‘y-tomoshalarida musiqa muhim o‘rin tutib keladi. Jumladan, bahor mavsumi bilan bog‘liq «Guli surx» xalq marosimi tantanalarida qo‘shiqlar aytilgan, «Qayroq o‘yin», «Zang o‘yin» kabi buxorocha raqslarga tushilgan.

● Musiqa tinglash.

BALJUVON

Xalq kuyi



2.

p


p

mf

▲ **Aytm.** Mashqlar:
Qo‘shiq kuylash.

a)

b)



BUXORO

Safar Barnoyev she'ri

Habibullo Rahimov musiqasi

Vals sur'atida

Dun- yo- da sha- har- lar ko'p,



Ham sho-mu sa- har- lar ko'p. Be- tak- ro-

ru be- nuq- son De-guv-chi xa- bar- lar

ko'p. De- guv- chi xa- bar- lar ko'p.

Qaytarishda tezroq

Oy bit-ta, Qu- yosh bit-ta, Bit-ta- dur, ho





Dunyoda shaharlar ko'p,
Ham shom-u saharlar ko'p.
Betakror-u benuqson
Deguvchi xabarlar ko'p.
Oy bitta,
Quyosh bitta,
Bitta Buxoro.

Minorai Kalon,
Derlar, shuhrati, shoni,
Har guzar, har ko'chasi
Donishmandlar makoni.
Oy bitta,
Quyosh bitta,
Bitta Buxoro.

Har toshida tarixi,
Bardoshida tarixi,
Naqqosh-u ustalarning
Sirdoshida tarixi.
Oy bitta,
Quyosh bitta,
Bitta Buxoro.

Imom Buxoriy bir yon,
Ibn Sinosi bir yon,
Nurga o'ralib ko'kka -
Bo'y cho'zgan tug'yon.
Oy bitta,
Quyosh bitta,
Bitta Buxoro.

Musiqa savodi. Kvinta intervali. Kvinta lotin tilida «beshinchi» degan ma'noni bildirib, besh pog'ona oralig'ida joylashgan ikki tovush nisbatini anglatadi. Bu intervalning shartli raqam belgisi «5». Kvinta intervalini ham boshqa intervallar qatori berilgan tovushdan ham pastga, ham yuqoriga qarab tuzish mumkin.

Misollar:



Kvinta intervalini o'zbek xalq kuylarida ko'plab uchratish mumkin. Jumladan, bu intervalni sizga tanish «Bog'bon qiz», «Buxorcha II» kabi namunalarda ham ko'ramiz.

BOG'BON QIZ



BUXORCHA II



Savol va topshiriqlar

- ?
1. Buxoro—Samarqand musiqa uslubiga mansub qanday qo'shiq yoki kuyni bilasiz?
 2. «Buxoro» qo'shig'ining ikki band she'rini yod oling.

SOZANDA SAN'ATI

Buxoro — Samarqand musiqa uslubida sozandachilik san'ati ham shakllangan bo'lib, u ayollar ijodi bilan bog'liqdir. Sozanda — bu yakkaxon - aytimchi bo'lib, u qo'lida qayroq yoki zang (qo'ng'iroqcha) ushlab raqsga tushadi hamda qo'shiq bandlarini kuylaydi. Ikki-uch ayoldan iborat doyrachilar dastasi esa naqarotlar bilan jo'r bo'lib turadi. Demak, sozanda dastasi (ansambli) da jami uch-to'rt ayol — yakkaxon sozanda, doyrachi, naqarotchi qatnashadi.

An'analarga ko'ra, sozanda dastalari o'z san'atini faqat xotin-qizlar davrasida o'tkaziladigan yig'in, to'y va turli bayramlarda namoyish etadi. Ularning repertuari o'zbek va tojik tilida bo'lgan ko'p qismli o'yin — aytim turkumlaridan iborat bo'ladi. Shuningdek, aytim qo'shiqlarni ham o'zbek, ham tojik tillarida kuylash an'anasi mavjud. Odatda, sozanda o'z aytimini vazmin, lekin tantanavorlik ruhi bilan sug'orilgan «To'y muborak» qo'shig'i bilan boshlaydi. So'ngra asta jadallashib boruvchi raqs - o'yin ayimlari birin-ketin, to'xtovsiz ijro etila boshlanadi.

Doyrachilar ham naqarotlar, ham usullar bilan jo'r bo'lib turishadi, ba'zan esa turkum davomida ikki xil tuzilishga ega ritmlarni o'zaro mutanosib ijro etadilar.



Musiq a tinglash.

BO'YI-BO'YI


O'rtacha

Xalq qo'shig'i

Bo'- yi, bo'- yi, bo'- yi, ab- ro'- yash du-
me mo- re. Ni- go- ri no- za- ni- ni ah-
li dar- dam (ey), Ab- ro'- yash du-
mi mo- re. Bo'- yi, bo'- yi, bo'- yi,
ab- ro'- yash du- mi mo- re, Sa- ram- ro gar
bur- ri bo xan- ja- ri tez (ey),
Ab- ro'- yash du- mi mo- re. Bo'- yi, bo'- yi,
bo'- yi, ab- ro'- yash du- mi mo- re.



▲ Aytim. 1. Mashqlar:



2. «Buxoro» qo'shig'ini o'rganishda davom eting.

Musiqa savodi. Seksta intervali. Seksta lotincha «oltinchi» degan ma'noni bildirib, olti pog'ona oralig'ida joylashgan ikki tovush nisbatini anglatadi. Seksta intervalining shartli belgisi «6» raqamidir. Bu intervalni ham berilgan tovushdan pastga va yuqoriga qarab hosil etish mumkin.

Misol:




MUXAMMASI BUZRUK



Savol va topshiriqlar

- ? 1. Sozanda dastasida nechta musiqachi qatnashadi?
2. Quyida berilgan notalardan yuqoriga qarab seksta intervali tuzing:



3. Quyida berilgan notalardan pastga qarab seksta intervali tuzing:



4. «Bog‘bon qiz» qo‘shig‘ining kuy - ohanglarida qo‘llangan kvinta va seksta intervallarini aniqlab, ularni ovozda mashq eting.
5. «Buxoro» qo‘shig‘ini yod oling.



Mustaqil o‘qing.

YANGI MUSIQIY AN‘ANALAR

Samarqand qadim-qadimdan Sharqning madaniyat va ma‘rifat markazi bo‘lib kelgan. Ajoyib va betakror me‘morlik inshootlari qad ko‘targan ushbu maskanda mumtoz musiqaning yuksak va nodir namunalari bo‘lgan maqomchilik an‘analari ham qaror topdi, rivojlandi va noyob san‘at sifatida jahonga mashhur bo‘ldi.

Bugungi kunda ko‘hna va doimo navqiron Samarqand shahrida «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivalining o‘tkazilishi an‘anaviy tus olmoqda. 1997-yildan buyon har ikki yilda o‘tkazila boshlangan ushbu festivalda Sharq xalqlari musiqiy ijodi namunalari, an‘anaviy mumtoz va zamonaviy milliy musiqa asarlari ijro etiladi, musiqiy qadriyatlar e‘zozlanadi va keng miqyosda targ‘ib qilinadi. «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqa va do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

SAMARQAND

Safar Barnoyev she'ri

Habibullo Rahimov musiqasi

Shodiyona

Sha-har-lar sar - va - ri Sa - mar - qand

Solist

Sa - mar - qand. Yer yu-zin say - qa-li

Xor

Sa - mar - qand, Sa - mar - qand.


Bul-bul-lar bog'-la - rin tark et - mas.

Bul - bul-lar tark et - mas, Ko'-zi-miz gav - ha-ri

Sa-mar - qand, Sa-mar - qand.

Til-da mash-hur, dil-da mash-hur Bo-g'i sha-mo -

li, hey, Sa-mar - qand o'z - bek e - li - ning



Shaharlar sarvari Samarqand,
Yer yuzin sayqali Samarqand.
Bulbullar bog'larin tark etmas,
Ko'zimiz gavhari Samarqand.

Yulduzli karvonga beshiksan,
Kunduzli armonga beshiksan,
Elim deb, yurtim deb, toblangan,
Yurt o'g'li Sarbonga beshiksan.

N a q a r o t :

N a q a r o t :

Tilda mashhur, dilda mashhur
Bog'i shamoli,
Samarqand o'zbek elining
Husni jamoli.

Oqshomi, tonglari nurafshon,
Zar sochib oqadi Zarafshon.
Ko'hna Sharq uyg'onib, yo'llaydi
Samarqand tomonga sharaf, shon.

N a q a r o t

MAVRIGI JANRI

M a v r i g i — ko'p qismdan iborat o'yin — aytimli turkum bo'lib, uning ijrosida uch va undan ortiq kasbiy xonandalar va bir-ikki o'yinchi (raqqos) ishtirok etadi. Mavrigi asosan erkaklar tomonidan aytiladi va raqs-o'yinga tushiladi. Jo'rsoz sifatida faqat doyradan foydalaniladi. Ammo bu sozni chertish uchun maxsus doyrachilar taklif etilmaydi, balki uni xonanda — ashulachi chertadi. Demak, xonandalar bir vaqtning o'zida ham ashula aytib, ham doyra chertib, o'zlariga jo'rsoz bo'ladilar.

Mavrigi aytimlarida ikki tillilik an'anasi namoyon bo'lib turadi, ya'ni turkumdagi ashula qismlari o'zbek va tojik tillarida kuylanadi.

Mavrigixonlik asosan Buxoro va shu viloyatning ayrim tumanlaridagina tarqalgan bo'lib, turli davra va bazmlarda ijro

etiladi. Bunda «yakkaxon — ko‘pchilik» (bandchi — naqarotchi singari) bo‘lib, aytish hamda yalpi jamoaviy (hamma xonandalar birgalikda) tarzda kuylash turlariga keng o‘rin berildi.

Mavrigida ikki va undan ortiq qismlar bo‘lib, ular birin-ketin ijro etiladi. Dastlabki qism vazminroq ruhda bo‘lgan «Kirish» vazifasini bajaradi. Keyingi qismlarga o‘tilgani sari o‘ynoqi ritmlar kuchayib, o‘yin — aytilmar jadallashib boradi. Shu sababdan ham bunday turkumlarda raqs usullari asosiy o‘rin tutadi.

● Musiqa tinglash.

MAVRIGI

Shoshmasdan

Birov: Hamma:

Ho, yo ko'-zi-dan bil sa-nam-ni oz-gi-na,

Birov:

oz-gi-na, oz-gi-na, oz-gi-na.

Hamma:

Yo-ki ko'-zi-dan bil-gin sa-nam-ni oz-gi-na,

oz-gi-na, oz-gi-na. E, qan-cha-ya bo'-lar

kim-di-ra me-ni qas-di-ma, qas-di-ma.

Hamma:



Zarb-da-na ku- chi, o'- zi- ya qu- yon. Voy tov- ba,



voy tov- ba, voy tov- ba.

O'yin — aytimning yana bir turini q a r s a k janri tashkil etib, u turli xil tomosha va davralarda ko'pchilik tomonidan ijro etiladi. Bunda davrada hozir bo'lganlar aylana shaklida o'tirishib, yakkaxonning aytimi va raqsiga qarsak bilan jo'r bo'lib turishadi va naqarotlarni kuylashadi. Demak, qarsak janri band - naqarot shaklida bo'lib, bandlarni yakkaxon (aytimchi) aytadi, davrada o'tirganlar esa naqarotlarni kuylashadi.

Qarsak o'yin — aytilarining bir necha turlari mavjud. Jumladan, qars, yakka qars, qo'sh qars, uch qars, besh qars kabi nomlar bilan ataluvchi qarsak turlari bor.



Aytim. Ovoz mashqlari:

a)



b)



YOSHLIK SENING PARVOZINGDIR

Po'lat Mo'min she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

O'rtacha

Yosh-lik o'-tib ke-ta - yo - tir

Yo muh-la-ti bi - ta-yo - tir.

Yoq - ti-ra - di u tez - lik - ni,

Ya-rat - moq-da ez - gu - lik - ni. Yosh-lik se-ning

qo'-ling- da-dir, yo'-ling-da-dir, ko'ng-ling-da-dir.

Yosh - lik se-ning

o'z so - zing - dir, o - vo - zing-dir,

par - vo - zing - dir. Yosh-lik se-ning

o'z so - zing - dir,

o - vo - zing-dir, par - vo - zing - dir,

o - vo - zing-dir, par - vo - zing - dir.

Yoshlik o'tib ketayotir
 Yo muhlati bitayotir,
 Yoqtiradi u tezlikni,
 Yaratmoqda ezgulikni.

N a q a r o t :

Yoshlik sening qo'lingdadir,
 Yo'lingdadir, ko'nglingdadir.
 Yoshlik sening o'z sozingdir, } 2 marta
 Ovozingdir, parvozingdir.

U shodlikdir, kuchlarga boy,
 G'ayratlarga, o'chlarga boy.
 Sovurmaslar uni yelga,
 Sarf etarlar ona elga.

N a q a r o t :


Sabot ula sabotiga,
 Chiqib olgin qanotiga.
 Yetkazar u sarhadlarga,
 Yetkazar u maqsadlarga.

N a q a r o t

Musiqa savodi. Septima intervali. Septima lotin tilida «yettinchi» degan ma'noni bildirib, yetti pog'ona oralig'ida joylashgan ikki tovush nisbatini anglatadi. Bu intervalning shartli raqam belgisi «7».

Septima intervalini berilgan tovushdan boshlab pastga va yuqoriga tuzish mumkin.

Misollar:



QICHQIR XO'ROZIM

O'zbek xalq qo'shig'i

Qich-qir, xo'-ro-zim, qich-qir, xo'-ro-zim, bo-la-lar uy-g'on-
sin, hey. Tog'-lar, o'r-mon, te-pa-lar-da bo-la-lar uy-g'on-
sin, qu-qu, qu-qu, qu-qu, qu-qu.

Savol va topshiriqlar

? 1. Quyida berilgan notalardan yuqoriga qarab septima intervalini tuzing:



2. Quyidagi nota misolida qaysi intervallar qo‘llanganligini aniqlang:

SHAFTOLIGA SAVOLIM

Po‘lat Mo‘min she’ri

Nadim Norxo‘jayev musiqasi



Shaf-to - lim, oh, shaf-to - lim, oh, shaf - to - lim, oh,
shaf-to - lim, qi-zi - lu oq, qi-zi - lu oq...

3. «Yoshlik sening parvozingdir» qo‘shig‘ining she’rini yod oling.

BUXORO — SAMARQAND DOSTONCHILIK AN‘ANALARI

Buxoro — Samarqand musiqa uslubiga doir dostonchilik an‘analari asosan viloyat tumanlarida qaror topgan bo‘lib, ular Bulung‘ur, Qo‘rg‘on, Narpay va Nurota dostonchilik maktablarini o‘z ichiga oladi. Shulardan Bulung‘ur va Qo‘rg‘on dostonchilik maktablari mashhurroqdir.

Bulung‘ur dostonchilik maktabida «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Rus-



Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li

tamxon», «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi», «Jahongir» kabi qahramonlik dostonlari yetakchi o‘rin tutadi. Jo‘rnavez soz sifatida do‘mbira qo‘llaniladi. Amin baxshi, Chinni shoir, Tovbuzar shoir, Qurbonbek shoir, Yo‘ldosh bulbul, Yo‘ldosh shoir, Qo‘ldosh Suyar kabi baxshilar bu maktabning o‘tmishdagi (XIX asr) yirik namoyandalaridir. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li (1872 — 1955) bu maktabning so‘nggi yirik vakillaridan biri edi.

Qo‘rg‘on dostonchilik maktabida ham «Alpomish» dostoni ijro etilgan bo‘lsa-da, biroq unda ishqiy-romantik dostonlarga (jumladan, «Gulnor pari», «Qunduz bilan Yulduz», «Oysuluv», «Kuntug‘mish» kabilar) ko‘proq e‘tibor beriladi. Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining o‘tmishdagi yirik vakillari qatoridan Yodgor, Lafas, Mulla Tosh, Mulla Xolmurod, Jumanbulbul kabi baxshilar namunali o‘rin olgan.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘li (1868 — 1937) va Po‘lkan shoirlar (1874 —1941) bu maktabning so‘nggi yirik namoyandalari edi.

● Musiqa tinglash.

DO‘MBIRAM KUYI

O‘rtacha





Aytim. Mashqlar:

a)



b)



d)




Notaga qarab kuylang.

BUXORCHA II

O'rtacha



Uch - cha-la qiz chiq-di a - riq bo' - yi - ga,



Eng kattasi endi to‘ldi oltiga,
Biri lola, biri sumbul, biri gul.

O'rtanchasi chakkasiga taqdi gul,
Biri lola, biri sumbul, biri gul.

Eng kichigi ikki qo‘li belida,
Biri lola, biri sumbul, biri gul.




Qo'shiq kuylash.


VATANIM ZAVOI

Po'lat Mo'min she'ri

Nadim Norxo 'jayev musiqasi

Vals sur'atida





Osilib shamollar bo'yniga,
Uchaman dalalar qo'yniga,
O'zimni sezaman qushdayin,
Osuda kezaman tushdayin.

Rom etar gullarda jilvalar,
Eng mayin kuy chalar jilg'alar.
Xayolim jilovin qo'yaman,
Yurtimning mehriqa to'yaman.

Bag'rida yurganim Vatanim,
Zavqini surganim Vatanim.

Rosayam serquyosh Vatanim,
Men uchun beqiyos Vatanim.

To'ymayin boqaman atrofga,
Yelkamni tutaman oftobga.
Har yonda mehnatim mevasi,
O'zimman bu o'lka egasi.

Aslida sharqona Vatanim,
Dunyoda yagona Vatanim.

Musiqa savodi. O k t a v a i n t e r v a l i . Oktava lotin tilida «sakkizinchi» degan ma’noni bildirib, sakkiz pog’ona oralig’ida joylashgan ikki tovush nisbati tushuniladi. Oktavaning shartli raqam belgisi «8» raqamidir.

Bu intervalni ham boshqa intervallar kabi yuqoriga va pastga qarab tuzish mumkin:



Misollardan ko‘rinib turibdiki, oktava intervalida bir tovushning aynan o‘zi quyi va yuqori pardalarda takror sadolanadi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Buxoro — Samarqand musiqa uslubi haqida gapiring.
2. Sozanda san’ati haqida qisqacha ma’lumot bering.
3. Buxoro — Samarqand musiqa uslubiga doir qanday dostonchilik maktablarini bilasiz?
4. Mavrigi janri haqida nima bilasiz? Qisqacha gapirib bering.
5. Chorak davomida o‘rgangan qo‘shiq yoki kuylaringizdan aytib bering.
6. Kvinta intervalini qisqacha izohlab, uni «re» va «mi» tovushlaridan yuqoriga qarab tuzing.
7. Seksta intervalini qisqacha izohlab, uni «do» va «re» tovushlaridan yuqoriga qarab tuzing.
8. Septima intervalini qisqacha izohlab, uni «do» tovushidan yuqoriga qarab tuzing.
9. Oktava intervalini qisqacha izohlab, uni «sol» tovushidan yuqoriga qarab tuzing.
10. «Buxorcha II» kuyida qo‘llanilgan barcha intervallarni aniqlang.

II CHORAK

FARG‘ONA – TOSHKENT VA XORAZM VOHALARINING MUSIQIY USLUBLARI

FARG‘ONA – TOSHKENT MUSIQA USLUBI HAQIDA TUSHUNCHA

Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubi – Farg‘ona vodiysi, Toshkent shahri va viloyati hududlarida qaror topgan musiqiy an‘analarning majmuidir. Bunda xalq musiqasiga oid kuy, terma, lapar, yalla, qo‘shiq, ashula kabi aytim janrlari, shuningdek, dostonchilik, ashulachilik, maqomchilik kabi musiqa an‘analari o‘z aksini topgan.



Z. Islomshikov. Shohimardon.



Atoqli san'atkor Turg'un Alimatov.

Farg'ona — Toshkent musiqa uslubida bolalar folklori, xotin-qizlarning qo'shiqchilik ijodi, yallachilik, ashulachilik va cholg'u kuylari munosib o'rin tutadi. Jumladan, mazkur uslubdagi bolalar folklori bo'lgan «Boychechak», «Yomg'ir yog'aloq», «Laylak keldi», «Oftob chiqdi», «Chuchvara qaynadi», «Chittigul» kabi qo'shiqlar nafaqat shu sarhadda, balki butun diyorimiz bo'ylab mashhurdir.

Xotin-qizlar davrasida lapar-u yallalar, to'y marosimi qo'shiqlari bo'lgan «Yor-yor», «Kelin salom» va boshqa qo'shiq namunalari sevib aytiladi.

Farg'ona — Toshkent musiqa uslubida «katta ashula» deb nom olgan ashula yo'li ham bo'lib, u, odatda, turli ommaviy yig'in va tantanalarda, bayram marosimlari va gap-gashtaklarda hamda an'anaviy choyxona majlislarida hofizlar tomonidan ijro etilib kelingan.

Binobarin, xalqimizning madaniy hayotida har bir milliy cholgʻuning oʻz oʻrni, vazifasi va ijro etiladigan maxsus kuylari bor. Misol tariqasida dutorni tavsiflash mumkin. Bu sozda ijro etish uchun maxsus «Qoʻshtor», «Chertmak», «Dutor Bayoti» kabi kuylar boʻlishi bilan birga yana undan joʻrnavoz sifatida ham foydalaniladi. Dutor (doyra kabi) xotin-qizlar orasida keng ommalashgan cholgʻudir. Ayni chogʻda, ashulachi-hofizlar ham dutorni tanbur bilan birga oʻz ashula aytimlariga joʻrnavoz etadilar. Ammo tanbur, sato, nay, qoʻshnay, gʻijjak, chang singari sozlar asosan kasbiy musiqachilar cholgʻusi hisoblanadi, yaʼni bu sozlarda ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik koʻrgan va zarur malakaga ega musiqachilar boʻlishi kerak.




Fargʻona – Toshkent cholgʻu musiqasida raqs kuylari ham mashhurdir. Bulardan, «Dilxiroj», «Andijon polkasi», «Fargʻonacha rez», «Tanavor», «Katta oʻyin» kabi raqs kuylarini aytish mumkin.

● **Musiqa tinglash.** «Shodiyona» cholgʻu kuylar turkumidan namunalar tinglang.

SHODIYONA

I








Aytim. Mashqlar:

a)



b)




YOSHLIK ZAVQI

Qadam Saidmurodov she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

O'rtacha sur'atda





har-yo - na, har-yo - na, shod-li-gim - ga




ay - lan - di,

ay - lan-di

Naqarot



Yosh-lik zav - qi di - lim-da, ko'k-sim me - ning



sa-mo - dir.

Do'st-lar bu-gun



ti - lim - da,

Har bir so'-zim na-vo - dir,




la-la - la - la - - -



Coda

la-la - la - la - - -



Oy boshimda parvona,
Yulduzlarga boylandim.
Nigoh solsam haryona (haryona)
Shodligimga aylandi (aylandi).

N a q a r o t :

Yoshlik zavqi dilimda,
Ko'ksim mening samodir.

Do'stlar bugun tilimda,
Har bir so'zim navodir.

Daryolarga qo'shilib,
Qushlar bilan uchdim men.
To'lqin - to'lqin jo'sh urib,
Chamanlarni quchdim men.

N a q a r o t

Savol va topshiriqlar

- ? 1. Farg'ona – Toshkent musiqa uslubiga qanday tavsif berish mumkin?
2. Quyidagi nota misollariga qarab, ularning tayanch pardalarini aniqlang:

№ 1



№ 2



3. «Yoshlik zavqi» qo'shig'ini yod oling.

YALLACHILIK SAN'ATI

Farg'ona — Toshkent musiqa uslubida xotin-qizlar ijodi unumli bo'lib, ular orasida, jumladan, tarafma-taraf bo'lib lapar aytishlar, turli qo'shiqlarni kuylash, to'y marosimi aytimlari bo'lgan yor-yor, kelin salom va o'lanlarni kuylash ommaviy tus olgan. Bular ichida, ayniqsa, yallalar sevib ijro etiladi.

Yalla — bu band — naqarot shakliga ega aytim bo'lib, u raqsga tushib kuylanadi. Bunda yakkaxon-yallachi doyra jo'rligida raqsga tushib bandlarni kuylasa, naqarotlarni davrada hozir bo'lgan ko'pchilik qo'shilib aytadi. Bundan tashqari, Buxoro — Samarqand sozandalari va Xorazm xalfalari san'atiga yaqin bo'lgan kasbiy yallachilar ham bo'lib, ular yakka holda yoki ansambl tarzida namoyon bo'ladi.

Yakka holdagi yallachi, odatda, o'z aytimlariga dutor yoki doyra sozida jo'r bo'ladi. Yallachilar ansambli esa 2 — 3 ayoldan iborat bo'lib, faqat doyra jo'rligida kuylaydilar. Xotin-qizlar davrasida hozir bo'lgan yallachilarning repertuari asosan qo'shiq, lapar, yalla va to'y marosimi aytimlaridan tuzilgan bo'ladi.





Musiqa tinglash.

YALLAMA YORIM

O'zbek xalq yallasi

O'rtacha



Qal-dir- g'och qo - ra e - kan, qa - no - ti o -



la e - kan, yosh-lik-da ber-gan ko'n-gil ay - ril - mas ba-

Naqarot



lo e - kan. Yallama yo-rim, yal-lo-la, yal-lo - la -



shay-lik, be-dod-la - shay-lik, uch-ta, to'rt-ta



bir bo' - lib, ro - hat - la - shay-lik.

Musiqa savodi. T u z u k . Tuzuk so'zi «to'g'ri», «bir-biriga mutanosib, hamohang tovushlar» kabi ma'nolarni bildiradi. Har bir qo'shiqning kuyi esa bir-biriga o'zaro bog'langan tovushlar asosida yuzaga keladi. Demak, tuzuk — bu tayanch pardaga nisbatan uyushib kelgan ohang tovushlarini anglatar ekan. Agarda biz shu tovushlarni tayanch pardadan boshlab yuqoriga qarab tizib chiqsak, to'g'ri tovushqator (zinapoya) hosil bo'ladi.

Misol:



Tovushqator bosqichlari rim raqamlari bilan (I, II, III va h.k.) belgilanadi. Ayni paytda ushbu bosqichlar turg'un (asosiy) va noturg'un tovushlarga ajraladi. Bunda I, III va V bosqichlar turg'un (yoki asosiy) hisoblanib, ular asosida tonika uchtovushligi ham yuzaga keladi. II, IV, VI va VII bosqich tovushlari esa noturg'un bo'lib, ular yondosh turg'un tovushlarga tortilish (yechilish) xususiyatini namoyon etadi:

Musol:

DO-MAJOR TUZUGI

Turg'un tovushlar:




Savol va topshiriqlar

1. Yallachilik san'ati haqida qanday tushunchaga egasiz?
2. «Olma atirjon» o'zbek xalq qo'shig'ining kuyini notalar asosida ayting.

⊙ **Musiqqa tinglash.**

OLMA ATIRJON

O'rtacha





XALQ ASHULALARI

Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubida xalq ashulalari ham muhim o‘rin tutadi. Bu ashulalar terma, lapar, qo‘shiq singari aytimlarga nisbatan ovoz doirasining kengligi hamda kuychan, so‘lim ohanglari bilan ajralib turadi. Xalq ashulalari barmoq vaznida bo‘lgan xalq she‘rlari yoki aruz vaznidagi mumtoz she‘riyat asosida aytiladi.

Ashulalar ijod etilishiga ko‘ra ikki xil bo‘lishi mumkin:

1. Xalq og‘zaki musiqa ijodida yuzaga kelgan ashulalar.
2. Kasbiy musiqa oid ustoz - bastakorlar tomonidan ijod etilgan ashulalar.

«Tanavor», «Ey nozanin», «Oydek to‘libdur», «Farzona», «Ul parivash» singari xalq ashulalari, nafaqat hofiz-ashulachilar, balki ziyolilar, hunarmandlar, kosiblar va boshqa kasb egalari tomonidan ham ijro etib kelinadi. Shuningdek, bu turdagi ashulalar xotin - qizlar tomonidan ham «ichkarida» kuylangan. Jumladan, «Chaman ichra», «Tanavor»ning «Qora sochim» kabi ashula yo‘llari dutor jo‘rligida xotin-qizlar tomonidan sevib ijro etiladi.

Ayni vaqtda «Nigirim», «Galdir», «Nisor», «Fig'on», «Chaman yalla» singari ashulalarni asosan kasbiy musiqachilar bo'lgan hofiz - ashulachilar kuylashadi. Bunda tanbur - dutor jo'rnavezligi ko'p qo'llaniladi.

Ashulalar, an'anaga ko'ra, turli yig'in va majlislarda, to'y marosimlari va boshqa xalq tantanalarida ijro etilgan. Choyxonalarda esa ashulachilarning ijodiy musobaqalari ham o'tkazib turilgan.

Taniqli ashula ijrochilari qatorida Mamadbobo Sattorov, Boltaboy Rajabov, Erkaqori Karimov, Ortixxo'ja Imomxo'jayev, Rasulqori Mamadaliyev, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Mukarrama Azizova, Zaynab Polvonova, Murodjon Ahmedov, Tavakkal Qodirov, Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Hotamov kabi mashhur san'atkorlar nomini hurmat bilan tilga olamiz.

● Musiqa tinglash.

TANAVOR I


Shoshmasdan *Xalq ashulasi*

Qo-ra so - chim

o' - sib (o)

Qo-ra so - chim

o'-sib qo - shim - ga tush -




TOSHKENT SHAHRIM

Po'lat Mo'min she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

O'rtacha



Qar-dosh-lik - dan kul - gan bax - ũing.

Tosh - kent shah-rim,

Tosh-qin shah - rim, O' - zing -

dir - san yu - rak - bag' - rim.

Tosh - kent shah-rim, tosh-qin shah -

rim, O' - zing - dir - san

yu - rak - bag' - rim, Tosh-kent shah-

rim.

Olinsa ham noming toshdan,
 Mehring sening nur – quyoshdan.
 Salobatli qaddu basting,
 Qardoshlikdan kulgan baxting.

Chaman nusxa yasangansan,
 Saodatdan yashargansan.
 Yulduz kabi charaqlaysan,
 Baxtim bo'lib yaraqlaysan.

Toshkent shahrim,
toshqin shahrim,
O'zingdirsan yurak-bag'rim.

Toshkent shahrim,
toshqin shahrim,
O'zingdirsan yurak-bag'rim.

Dong yoygansan tarixlarda,
Nomdorimsan ta'riflarda.
Paxtakorga shon shahrimsan,
Mehmondo'stim, non shahrimsan.

Toshkent shahrim, toshqin shahrim,
O'zingdirsan yurak-bag'rim.

Musiqi savodi. Y a r i m t o n va b u t u n t o n haqidagi bilimingizni mustahkamlang. Musiqi cholg'ulari (masalan, rubob, dutor, fortepiano va b.)ning pardalar bo'linmasida bir-biriga tutash joylashgan yondosh pardalar yarim tonni tashkil etadi. Masalan, Do-major tovushqatorida yarim ton oralig'i «mi» va «fa», «si» va «do» tovushlari orasida yuzaga keladi.

Misol:



Yarim ton oralig'idagi tovushlarni kuylaganda ovozda go'yo yarim «qadam» tashlangan bo'ladi, ya'ni ovozingizni ozgina yuqoriga ko'tarasiz yoki pastga tushirasiz. Demak, yarim ton oralig'ida joylashgan tovushlar bir-biriga nihoyatda yaqin joylashgandir. Quyidagi misollarni ovozingizda mashq qilsangiz, yarim ton holatini yaxshiroq his etasiz:



Butun ton ikkita yarim tonga teng bo'lib, bunda ovozingizda yarim tonga nisbatan ko'proq siljish sodir bo'ladi.

Misol:



Savol va topshiriqlar

- ?
1. «Toshkent shahrim» qo'shig'ining ohang — pardalarida mavjud yarim ton va butun ton oraliq tovushlarni aniqlang.
 2. Qo'shiqning naqaroti va uch band she'rini yod oling.
 3. Quyidagi nota cho'zimlarining o'lchov sanog'ini aniqlang hamda ularni chapak vositasida (hisobga mutanosib) ifoda eting:



Mustaqil o'qing.

KATTA ASHULA

Katta ashula Farg'ona — Toshkent musiqa uslubining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Chunki, kasbiy musiqa o'ld bu ashula janri boshqa mahalliy uslublarda uchramaydi.

Katta ashula — yirik hajmli va kuy-ohanglari keng nafasga mo'ljallangan ashula bo'lib, u yakka hofiz — ashulachi yoki 2 — 4 hamnafas hofizlar tomonidan aytiladi. Bunda jo'rnavoz cholg'ular qo'llanilmaydi. Katta ashulalarning nazmiy asoslarini aruz vaznida bo'lgan diniy-falsafiy, ishqiy-muhabbat, pand-nasihat kabi mavzulardagi she'riyat (Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqimiy, Furqat, Miskin, Habibiy va boshqalarning) namunalari tashkil etadi. Bu turdagi ashulalar rivojlangan kuylarga ega bo'lib, odatda, erkin ritm- o'lchov asosida badihaviylik xususiyatlari bilan kuylanadi. Mazkur janrning «patnusaki ashula», «likobi ashula» singari boshqacha nomlanishlari ham ma'lumki, zero hofizlar ijro paytida qo'llarida patnis yoki likob (tarelka) ushlab turadilar.

Boltaboy hofiz, Hamroqulqori, Mamadbobo Sattorov, Akbarqori Haydarov, Erkaqori Karimov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov kabi hofizlar katta ashulalarning mahoratli ijrochilari edilar. Bu san'atkorlar kuylagan «Ko'p erdi», «Bir kelsun», «Ey dilbari

jononim», «Adashganman», «Do'st-lar», «Yovvoyi Chorgoh» singari katta ashulalar keng tinglovchilar ommasiga yaxshi ma'lumdir.

Keyingi yillar davomida ayrim katta ashulalarni cholg'ular jo'rligida ijro etish amaliyoti ham qo'llana boshlandi. Bunga «Mehnat ahli», «Ey dilbari jononim», «O'zbekiston» kabi katta ashulalarni misol keltirish mumkin. Shuningdek, katta ashulalarni alohida cholg'uda, masalan, nayda ijro etish an'anasi ham yuzaga keldi. Bu o'rinda Ismoil naychi, Abduqodir naychi va Saidjon Kalonovlardek ustoz san'atkorlarimizning xizmatlari katta.



Jo'raxon Sultonov

BIR KELSUN

Alisher Navoiy g'azali

Katta ashula

Shoshmasdan

(A - - a - do ma - ney)

Dil-da vas-ling er-di do-im ta-

man - no, Xa-yo-ling-ni qi-

lib vaq-ti ta mo-sho

(jon). No-goh o-yi na-ga bo-qib, ni-

go - ro, Mah-vu hay-ron- la -

ring yo-dim - ga tush-di. Vo-

yo, vo- yo, a-

do- ma- ney.

XORAZM MUSIQA USLUBI HAQIDA TUSHUNCHA

Xorazm musiqa uslubi — bu shu vohadagi xalq qo‘shiq va laparlari, turli marosim, tomosha va o‘yin-raqs kuylari hamda dostonchilik, ashulachilik va maqom san‘ati kabi kasbiy musiqa an‘analaridan tashkil topgan. O‘zbek musiqasining tarkibiy qismi bo‘lgan Xorazm musiqasi ayni vaqtda o‘zgacha tarovatga ega bo‘lib, uning ma‘lum darajada turkman va ozarbayjon musiqasiga yaqin jihatlari ham bordir.

Xorazm musiqa uslubining o'ziga xosligi uning an'anaviy cholg'ularida ham namoyon bo'ladi. Masalan, bulamon damli – puflama cholg'usi bu uslubda keng qo'llaniladi. U boshqa mahalliy uslublar uchun xos emas. Bulamon – tut daraxtidan ishlangan kichik surnay shaklidagi cholg'u bo'lib, unda yakka holda va ansambllar tarkibida ijro etish mumkin.

Xorazmda Kavkazning mashhur tor cholg'usi ham keng tarqalgan. XIX asr oxiridan boshlab esa «garmon» cholg'usi ham qo'llana boshlangan. Uni «soz» deb atashadi. Bulardan tashqari, Xorazm musiqa amaliyotida deyarli barcha o'zbek xalq cholg'ulari (dutor, tanbur, g'ijjak, nay, qo'shnay va boshqalar) qo'llangani holda do'mbira sozi kam uchraydi.

Xorazm musiqa uslubida raqs va, umuman, o'yin harakatlari bilan bog'liq cholg'u kuylari salmoqli o'rin tutadi. Raqs-o'yin kuylarini bir necha turlarga bo'lish mumkin:

1. Xalq orasida ommalashgan raqslar. Ularning asoslarini «Lazgi», «Ganji Qorabog'», «Ufori» kabi kuylar tashkil etadi.

2. Dorbozlarning o'yin kuylari. Ularni «Yelpazalandi», «Ufori Yelpazalandi» kabi kuylar tashkil etadi.

3. Qiziqchi va masxarabozlarning o'yin kuylari. Bu kuylarni «Chog'olloq», «Az - az», «Az - azning tezi», «Xorazmcha», «Yuz bir», «Ot eroni», «Surnay yo'li» kabi namunalar tashkil etadi.

Xorazm raqs va o'yin kuylari ommaviy bayram, sayillarda ijro etiladi. O'tmishda esa Xiva xonligida o'tkazilgan Xalq sayli kunlari «Xatarli o'yin» nomli turkum mazmunida ham namoyish etilgan. «Xatarli o'yin»da parrandalar va uy hayvonlarining xatti - harakatlari (masalan, «Ot o'yin», «Tustovuq o'yin», «Kaptar» va b.) hamda «Olma terish», «Kampir», «Ko'knori» kabi maishiy sahnalar musiqa jo'rligida komik harakatlar vositasida aks ettirilgan.




● Musiqa tinglash.

YUZ BIR

Xalq kuyi

M.M. ♩ = 112-116





NORIM-NORIM

Xalq kuyi

O'rtacha



▲ **Aytim. Mashqlar:**

a)



b)




QARI NAVO (ASHULA YO'LI)


Munis g'azali

M.M. ♩ = 104

Xalq ashulasi








Ey latofat osmoni uzra husning oftob,
Zarradek mahvashlar atrofingda aylar iztirob.
Mohi ruxsoring namoyon aylabon chiqsang agar,
Kun xijolatdin yuziga shomdin tortar niqob.

Musiqa savodi. Bilimingizni mustahkamlang. **M a j o r t o - v u s h q a t o r i**, odatda, tuzukning tayanch pardasi (tonikasi) dan boshlab quyidagi tovushlar nisbatida tarkib topadi:
1 ton + 1 ton + 0,5 ton + 1 ton + 1 ton + 1 ton + 0,5 ton

Do-major



Savol va topshiriqlar

- ?
1. Qanday raqs kuylarini bilasiz? Nomlarini ayting.
 - 2 «Ey, mehribonim» qo'shig'ining tayanch pardasini butun nota vositasida belgilab, tovushqatorini notalar bilan yozib chiqing.

3. «Qari navo» ashulasining kuy-ohanglarida qoʻllangan intervallarni aniqlang, doyra usulini «bum-bak» vositasida ifoda eting.
4. «Sol» notasidan yuqoriga qarab major tovushqatori tuzing.



Mustaqil oʻqing.

XORAZM XALQ LAPARLARI

Ikki va undan ortiq ijrochilarning tarafma-taraf boʻlib kuylaydigan aytishuvlari **l a p a r** deb atiladi. Laparlar aytilayotganda raqsga ham tushish mumkin, chunki ularda koʻpincha shoʻx usullar (ayniqsa Ufar usuli) keng qoʻllaniladi.

Laparlarda naqarotlar boʻlmaydi, balki koʻproq «savol-javob» shakliga asoslangan sheʼriy bandlar qoʻllaniladi. Bunga «Nima-nima, nima deysiz?» lapari misol boʻla oladi.

Shuni ham aytish kerakki, Xorazm musiqa uslubida laparlar nafaqat ikki kishi tomonidan, balki yakkaxon (asosan ayollar) tomonidan raqsga tushib aytilishi ham mumkin. «Par devol» va quyida nota misoli keltirilgan «Oxtaraman» kabi aytimlar aynan yakkaxon tomonidan kuylanadigan laparlardir.


Anʼanaga koʻra laparlar xalq bayrami va sayillarda, toʻy marosimlarida va boshqa ommaviy tantanalarda ijro etiladi.

OXTARAMAN

Shoʻxchan *Oʻzbek xalq lapari*

Doʻst - lar, ayb ay - la-mang,

bir jo - na-jon ox-ta - ra-man. Choʻ-li may -



XORAZM DOSTONCHILIK AN'ANALARI

Xorazm dostonchilik maktabi o'z an'alariga ega bo'lib, u boshqa mahalliy dostonchilik maktablaridan (masalan, Surxondaryo – Qashqadaryo dostonchilik an'alaridan) farqli jihatlariga ega. Bu farqlar, asosan, quyidagilardan iborat:

a) Xorazm dostonlari (ichki) «bo'g'i q ovoz»da emas, balki «ochiq ovoz» uslubida kuychan xususiyatlar bilan aytiladi.

b) Ko'pgina mahalliy dostonchilik maktablarida do'mbira sozi jo'rnavor sifatida qo'llansa, Xorazm dostonchiligida dutordan foydalaniladi. Shuningdek, doston aytimida ijrochilar ansambli qatnashadi. Bunda ustoz – baxshi dutor, tor yoki rubobda, qolganlari esa g'ijjak, bulamon va ba'zan doyra sozlarida jo'r bo'lib turishadi.

d) Xorazm dostonlari repertuarini, asosan, «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish», «Bozirgon», «Oshiq Oydin» kabi dostonlar tashkil etadi. Biroq Xorazm dostonchiligida qahramonlik dostoniga mansub «Alpomish» namunasi uchramaydi.

Xorazm dostonchiligining yirik vakillari qatorida Ahmad baxshi, Bolabaxshi, Ro'zimbek Murodov, Qalandar baxshilar nomini aytish kerak.

Xorazm musiqa uslubi doirasida dostonlarni garmonda (sozda) ijro etish an'anasi ham bo'lib, bunda dostonlar bir butun yaxlit shaklda emas, balki undan olingan parchalar va termalar aytiladi.

Xorazmda bu turdagi ijrochilarni sozchi, ya'ni Qurbon sozchi, Qodir sozchi deb ataydilar.



Bolabaxshi Abdullayev

● **Musiqa tinglash.** «Go'ro'g'li» dostonidan «Ovozing seni» aytimini tinglang.

OVOZING SENI

Shoshmasdan



Xalq oʻzi yet - qiz - gan

a - ziz meh-mo - nim, bo - la - ma oʻx-

shay-di o - vo - zing se - ni. Tez xa-ba-rin

ber - gil chiq-mas-dan jo - nim,

oʻgʻli - ma oʻx-shay-di o - vo - zing se - ni,

bo-la - ma oʻx-shay-di no - li - shing se-

ni.

Oʻgʻlim ketib sulton boshim xor oʻldi,
 Oʻgʻlimni koʻrmakka koʻnglim zor oʻldi,
 Yigʻlamoqdin ikki koʻzim koʻr boʻldi,
 Oʻgʻlima oʻxshaydi ovozing seni,
 Bolama oʻxshaydi nolishing seni.

△ Qo'shiq kuylash.

ONA TILIM – O'ZBEK TILIM

Po'lat Mo'min she'ri

Farhod Alimov musiqasi

O'rtacha sur'atda



Ti-lim chiq-qan so'-zing bi-lan,



Di-lim rav-shan o'-zing bi - lan.




Faxr e-ta-dur xal-qim - e - lim, Faxr e-ta-dur



xal-qim - e - lim, O'z-bek ti-lim - o - na ti - lim.



O'z-bek ti-lim - o - na ti - lim.



Ya - go - na - san Va-tan mi-sol,



Sen-dan top-dim bax-tu iq-bol,

Mak-ta-bing-da ol - dim ta'-lim, mak-ta-bing-da
ol-dim ta'-lim, o - na ti - lim - o - na ti - lim,
o - na ti - lim, o - na ti - lim.
Na-vo - iy-dan me-ro - sim-san,
ja - rang-la-gan o-vo - zim-san.
Yu-ra - gim-da zav-qim lim-lim,
O - na ti - lim - o'z-bek ti-lim,
Yas-sa-viy-ning xi-to - bi san, Qo-di - riy-lar
ki-to - bi-san, ey o'-zim-ning mus-ta - qi-lim,
o - na ti - lim - o - na ti - lim.



Tilim chiqqan so'zing bilan,
Dilim ravshan o'zing bilan.
Faxr etadur xalqim — elim,
O'zbek tilim — ona tilim.

Yagonasan Vatan misol,
Sendan topdim baxt-u iqbol.
Maktabingda oldim ta'lim,
Ona tilim — ona tilim.

Juda qadim — sharqonasan,
Asli zoti turkonasan.
Sen tufayli to'ldi aqlim,
Ona tilim — ona tilim.


Navoiydan merosimsan,
Jaranglagan ovozsimsan.
Yuragimda zavqim lim-lim,
O'zbek tilim — ona tilim.

Yassaviyning xitobisan,
Qodiriylar kitobisan.
Ey o'zimning mustaqilim,
Ona tilim — ona tilim.


Sendan ayon o'zbekligim,
Yaxshilarga ko'zdekligim.
Berding odob, berding bilim,
O'zbek tilim — ona tilim.

 **Musiqa savodi.** T a b i i y m i n o r . Minor tovushqatori tayanch pardadan boshlab quyidagi formula asosida tarkib topadi:

a) 1 ton + 0,5 ton + 1 ton + 1 ton + 0,5 ton + 1 ton + 1 ton



Minor tovushqatorining bosqichlari, majorda bo'lgani kabi, turg'un va noturg'un tovushlarga ajraladi. Turg'un tovushlar I, III va V bosqichlarga, noturg'unlari esa II, IV, VI va VII bosqichlarga muvofiq keladi.



Topshiriqlar

- ?
1. Xorazm dostonchilik maktabiga xos jihatlarni aytib bering.
 2. «Ovozing seni» aytimida qo'llanilgan intervallarni aniqlang.
 3. «Ona tilim – o'zbek tilim» qo'shig'ining dastlabki uch bandini yod oling.
 4. «Re» notasidan yuqoriga qarab minor tovushqatori tuzing.

XALFA SAN'ATI

Xorazm dostonchiligida uning bir tarmog'i bo'lib shakllangan xalfalar san'ati ham ahamiyatlidir. Xalfachilik – asosan ayollar orasida joriy bo'lib kelayotgan san'at bo'lib, unda ko'proq dostonlardan olingan parcha va termalar, shuningdek, turli vaziyatlarda kuylash uchun ijod etilgan (to'y marosimi qo'shiqlari, lapar va boshqalar) qo'shiq-aytimlar kuylanadi. Xorazm xalfalari Buxoro – Samarqand sozandalari singari asosan xotin-qizlar ishtiroki bilan bog'liq turli yig'in, marosim va bayramlarda qatnashadilar. Bunda xalfalar ijodi ikki shaklda – yakka va jamoaviy (ansambl) tarzda namoyon bo'ladi.

Yakka (yoki yakkaxon) xalfalar, odatda, doston qo‘shiqlaridan tortib, to to‘-yu hasham qo‘shiqlari (masalan, «Yor-yor», «Kelin salom», «Al-muborak» va b.) ni jo‘rnavoz cholg‘usiz aytadilar. Shu bilan birga, yakkaxon xalfalar motam marosimlarida ham ishtirok etib, unda «Ibrohim Adham», «Bobo Ravshan» kabi xalq kitoblarini ma‘lum ohanglar asosida o‘qiydilar. Yakkaxon xalfalar qatorida Roziya Matniyoz qizi, Poshsho Saidmamat qizi, Saodat Xudoyberganova va boshqalarni aytish mumkin.

Tarkibida ansambl bo‘lgan xalfachilikda esa, odatda, ustoz - xalfa (ustoz -xalfa ashula aytadi, ba‘zan o‘ziga garmonda jo‘r bo‘ladi), doyrachi va raqqosa-o‘yinchilar ishtirok etadilar. Bunday shakldagi xalfalar, jumladan, Bibi shoir, Ojiza, Onajon Safarova, Xonimjon xalfa, Nazira Sobirova va boshqalar xalq dostonlari va to‘y tantanalari qo‘shiqlari bilan birga yana lapar, yalla hamda o‘zlari va o‘zga ijodkorlar yaratgan aytimlarni kuylaydilar.



Musiqi tinglash.

GANJI QORABOG‘

O‘zbek xalq qo‘shig‘i

O‘rtacha

Gan - ji

qo - ra bog‘-dan gal - dim qo - shin -


ga, San - ga jo - nim fi - do (yo)

qil - ma - sam bo‘l - mas. Gan - ji



Musiqa savodi. U s u l. Usul — o'zbek milliy musiqasining muhim ifodaviy vositasi bo'lib, u zarbli cholg'ular (doyra, nog'ora va b.)da ijro etiladi. Demak, usul zarbi cholg'ularda hosil etiladigan o'zgarmas takroriy ritm tuzilmalaridir.

Usullar vositasida qo'shiqlarga, cholg'u kuyi, raqs kuylari va raqslarga jo'r bo'linadi. Usul, odatda, ikki tovush asosiga qurilgan bo'ladi. Bu tovushlarni ustozlar «bak» va «bum» deb ataydilar. «Bak» tovushi nisbatan baland bo'lib, u doyraning gardishi (chetki qismi) tomon zarb berilishidan hosil bo'lsa, «bum» tovushi doyraning o'rta qismiga zarb tovushidan yuzaga keladi va u «bak» tovushiga nisbatan quyi (past) tovush hisoblanadi. Usullarni notalar vositasida ham yozish mumkin. Buning uchun bir chiziqli nota yozuv tizimidan foydalaniladi. Bunda «bak» tovushi chiziqning ustiga, «bum» esa chiziqning ostiga nota bilan yozib qo'yiladi:



Savol va topshiriqlar

- ?
1. «Ganji Qorabogʻ» qoʻshigʻining kuyida qoʻllangan intervallarni aniqlang.
 2. «Ganji Qorabogʻ» qoʻshigʻining asosiy tayanch (tonika) pardasidan boshlab yuqoriga kuy tovushqatorini notalar bilan yozing hamda turgʻun tovushlarni rim raqamlari bilan belgilang.
 3. «Ona tilim- oʻzbek tilim» qoʻshigʻini toʻliq yod oling.
 4. Quyidagi usullarni bir chiziqli nota yozuviga koʻchiring.
N a m u n a :
a) bum - ba-ka



- b) ba-ka bum
d) bak ba-ka bum
e) bum-bak

XORAZM ASHULACHILIK SAN'ATI

Xorazmda ashulachilik san'ati ravnaq topgan boʻlib, ashulachilarni xalq orasida koʻproq «goʻyanda» deb ataydilar. Ashula janrining muhim jihatlari shundan iboratki, u asosan mumtoz sheʼriyat namunalariga asoslanadi. Kuy-ohanglari esa qoʻshiq va laparlarga nisbatan keng rivojlangan boʻlib, ovoz koʻlami (diapazoni) bir oktava va undan ortiq boʻladi.

Xorazmda «Suvora» nomi bilan maʼlum va mashhur ashula turkumlari mavjud. «Suvora» soʻzi fors-tojikcha boʻlib, otliq maʼnosini bildiradi. Ustozlar «Suvora» ashula yoʻllarini «ot tuyogʻidan hosil boʻladigan turli ritmik tuzilmadagi usullar va ularga asoslangan kuylar» ni ifodalaydi, deb taʼkidlaydilar.

Xorazm Suvoralari Navoiy, Mashrab, Nodira, Ogahiy, Munis, Avaz Oʻtar, Bedil kabi shoirlarning sheʼrlari asosida aytiladi.

Xorazmda «Suvora» ijrochilarining didalishma yoki diydalashma deb yuritiladigan oʻziga xos musobaqalari oʻtkazib turiladi. Bunday musobaqada qatnashayotgan bir necha ashulachining har biri dastlabki (birinchi) ashulachi taklif etgan ashula kuyi asosiga yangi sheʼrlar bogʻlab, navbatma-navbat kuylaydilar. Bu ijodiy vazifani yuqori mahorat bilan bajargan ashulachi didalishma musobaqasida gʻolib boʻlib chiqadi.

«Suvora»larning mashhur ijrochilari qatorida Hojixon Boltayev, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshukurov kabi ijrochilarning nomlari alohida hurmat bilan tilga olinadi.

Xorazmda Suvora ashula yo'llarining ikki turkumi mashhur bo'lib, ular quyidagicha nomlar bilan ataladi:

1. O'n ikki Suvoradan iborat **Savti Suvoralar** turkumi. Bu turkumdagi har bir Suvora rim raqami bilan belgilanadi.

Masalan, Savti Suvora I, Savti Suvora II, Savti Suvora III, Savti Suvora IV, Savti Suvora V va hokazo. Mazkur turkumdagi barcha Suvoralar 6/8 o'lchov vaznidagi doyra usullari bilan ijro etiladi.

2. Suvoralarning yana bir turkumini **yirik shaklli Suvoralar** majmuasi tashkil etadi. Bu Suvoralar turkumidagi har bir Suvoralarning maxsus nomi bo'lib, ular Suvora, Chapandozi Suvora, Yakparda Suvora, Xushparda Suvora, Kajhang Suvora kabi ataladi. Bu Suvoralarda 6/8, 3/4, 3/8 ritm o'lchovlari va ularga muvofiq doyra usullari qo'llanadi.



Madrahim Sheroziy

● **Musiqaning tinglash.**

SAVTI SUVORA I

Og'irroq *Suvora yo'li*

Ko'ng-li-ma bir gul g'a-mi-din

san-chi-lib-dur xor - lar, oh - kim,

Har xor - din jo-nim - da - dur o - zor-lar,

Ay-la-mish ko'ng-lim-ni (maj-nun) jl - va - i

lay-li - va - shi - kim, a-si - ri g'am-za-si

dur-lar (ay) pa - ri rux-sor - lar, kim a - si -

ri g'am-za-si - dur-lar (ay) pa - ri rux-sor - lar.

▲ Aytim. 1. Mashqlar:

a)



b)



d)



h.k.

▲ 2. «Qalabandi» kuyini notalar asosida (vazmin sur'atda) kuy-lashni mashq qiling:



QALABANDI

O'rtacha tez

O'zbek xalq kuyi





O'ZBEGIMDAN AYLANAY

Habib Rahmat she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Marsh sur'atida

O'z - be - kis - ton - o - na yurt,
Dun-yo - da dur - do - na yurt. Xal - qi tan - ti,
meh-nat - kash, xal - qi tan - ti, meh-nat - kash,
Do'st-lik-da ya-go - na yurt. Ham-ma-ni teng siy-lay-di,
Tinch-lik, o-mad ti-lay - di. Ham-ma-ni teng siy-lay - di,
Tinch-lik, o-mad ti-lay - di, O'y-la - ga - ni yax-shi-lik,
Kun-dan-kun-ga gul - lay - di.

O'zbekiston — ona yurt,
Dunyoda durdona yurt.
Xalqi tanti, mehnatkash,
Do'stlikda yagona yurt.

Qalbidek pok osmoni,
Butdir iymon, vijdoni.
Fe'li kengdir shu sabab,
To'kindir dasturxoni.

Hammani teng siylaydi,
Tinchlik, omad tilaydi.
O'ylagani yaxshilik,
Kundan-kunga gullaydi.

O'zbeginndan aylanay,
O'zligimdan o'rgilay.
Men ham shu yurt farzandi,
Xizmatiga shaylanay.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

- ?
1. Farg'ona — Toshkent musiqa uslubi haqida tushuncha bering.
 2. Katta ashula haqida umumiy tushuncha bering.
 3. Xorazm musiqa uslubi haqida tushuncha bering.
 4. Xorazm xalq raqslarining nomlarini ayting.
 5. Xorazm dostonchilik maktabining o'ziga xos jihatlarini tavsiflang.
 6. Farg'ona — Toshkent cholg'u musiqasi haqida nimalarni bilasiz?
 7. Major tuzugi haqida tushuncha bering.
 8. Chorak davomida o'rgangan qo'shiqlardan 1–2 namuna kuylang.

Musiqa lug'ati

1. *B u l a m o n* — tut daraxtidan ishlangan surnay shaklli puflama cholg'u. Hajmi surnaydan kichik, tovush hosil etuvchi puflamasi sibiziqniki kabidir, ya'ni puflama naychasida qamishdan tayyorlangan «tilchasi» bor. Bulamonda barmoqlar bilan bosishga mo'ljallangan sakkizta teshik mavjud.
2. *M a j o r* — (*lot.* katta) turg'un tovushlari (I, III va V bosqichlari) ning yig'indisi katta (ya'ni major) uchtovushligini hosil etuvchi tuzuk.
3. *M i n o r* — (*lot.* kichik) turg'un tovushlari (I, III va V bosqichlari) ning yig'indisi kichik (ya'ni minor) uchtovushligini hosil etuvchi tuzuk. Minor majordan farqli o'laroq, ko'proq g'amgin holatlarni ifoda etishga moyildir.

4. *Mirzadavlat* — XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Fargʻonada yashab faoliyat koʻrsatgan Mirzadavlat ismli bastakor ijodiga mansub ikki qismli cholgʻu kuyi. Xalq orasida mashhur bu kuy asosida qoʻshiqlar ham aytilgan.
5. *Sarbozcha* — (*fors.-toj.*) bosh oʻyinchi, oʻzini fido etuvchi maʼnolarini anglatadi. Sarbozlar Turkiston xonliklaridagi harbiy qismlarning askarlari boʻlganlar. «Sarbozcha» kuyi ana shu harbiylarning jangovar ruhini, dadil odimini badiiy ifoda etadi.
6. *S a t o* — torli kamonli cholgʻu (tashqi qiyofasi tanburni eslatadi). Satoda asosan vazmin surʼatli mumtoz musiqa namunalari ijro etiladi. Musiqa amaliyotida baʼzan tanburni sato oʻrnida, yaʼni kamon bilan chalish hollari uchraydi. Satoning uchta yoki toʻrtta asosiy simlari (torlari) boʻlib, ular tagidan tortilgan va dastagorning yon quloqlariga bogʻlangan aks sado beruvchi 8—11 ta torlari bor.
7. *T a n b u r* — torli — chertma cholgʻu. Noksimon oʻyma kosasi va unga ulangan uzun dastasi tut yogʻochidan tayyorlanadi. Dastasida 16 tacha bogʻlama pardasi bor, kosa qopqogʻiga 4 ta choʻp (xas) parda yelimlangan boʻladi. Torlarining soni uchtdan oltitagacha boʻlishi mumkin. Hozirgi davrda koʻproq uch-toʻrt simli (torli) tanburlar amaliyotda keng qoʻllaniladi.
8. *Ch a n g* — trapetsiya shaklli torli — urma cholgʻu. Unda jami 40 ta tor boʻlib, ular 14 ta asosiy torlarga birlashadi. Shulardan 13 tasi uchtdan taqsimlangani holda, quyi yoʻgʻon tori bittadir. Torlar ikkita choʻp vositasida urib va chertib (tirnab) chalinadi.
9. *Shodiyona* — qadimdan toʻy, bazm, sayil va boshqa xalq bayramlarida nogʻora va surnayda ijro etiladigan 12 qismli kuy nomi. Shodiyona turkumining har bir qismi alohida ritm tuzilishli zarb usuliga ega boʻlib, ular baʼzan yakka nogʻorada chalinadi. Shuningdek, surnay, karnay, nogʻora va doyrarlardan iborat cholgʻu ansambli tomonidan ham ijro etiladi.

10. *Q o ' s h n a y* — ikkita qamish nayning o'zaro bog'lanmasidan iborat puflama cholg'u. Naylarning bir tomonidan tovush hosil etish uchun tilchalar yo'nilgan bo'ladi hamda har birining oltita yoki yettita teshigi bor. Odatda, qo'shnay ijrochisi bo'lgan kasbiy sozandalar (qo'shnaychilar) «qaytarma nafas» usulidan keng foydalanadilar.

11. *F o l k l o r* — inglizcha so'zdan olingan bo'lib, bunda folk (folk) - xalq, lor (lore) — donishmandlik, bilim-donlikni anglatadi. Bundan «xalq donishmandligi» ma'nosi kelib chiqadi. Folklor atamasi «xalq og'zaki ijodi», «musiqiy folklor» iborasi esa «xalq musiqasi» o'rnida ham qo'llaniladi.

III CHORAK

SHASHMAQOM

MAQOM HAQIDA TUSHUNCHA

Maqom san'ati o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, maqom kuylarining ibtidoiy shakllari eramizdan avvalgi uzoq davrlar musiqa madaniyatiga borib taqaladi. Bunda xalq musiqasining kuy-ohang va ritm-usul bobida erishgan natijalari murakkab maqom san'atining shakllanishiga ta'sir ko'rsatganligi e'tirof qilinadi. Ammo maqomlarni ayni ma'nodagi xalq musiqa ijodi, deb o'ylash ham to'g'ri bo'lmaydi. Zero, bu turdagi musiqiy san'at og'zaki ravishda kamol topib kelgan va avloddan avlodga «ustoz-shogird» an'anasi orqali meros bo'lib o'tib kelgan kasbiy musiqaning (shuningdek, ustozona musiqaning) yuksak namunalaridir. Kasbiy musiqaning ilk shakllanishida esa dastlab «saroy madaniyati» muhim o'rin tutgan edi. Chunki, dastlabki davrlarda xalq orasidan yetishib chiqqan iste'dodli musiqachilar xon saroylariga (yoki amaldorlar xonadonida) musiqachi bo'lib xizmat qilish uchun jalb etilganlar. Xuddi ana shunday vaziyat va shart-sharoitlar yuzaga kelgan davrlardan boshlab kasbiy musiqa qaror topa boshlagan. Demak, o'tmishda maqom san'ati bilan asosan kasbiy musiqachilar (bastakor, kasbiy sozanda - cholg'uchi, kasbiy xonandalar) maxsus shug'ullanib hayot kechirganlar.

Ta'kidlash joizki, maqomlar kasbiy musiqaning eng salmoqli va shu bilan birga eng murakkab qismini tashkil etadi. Zotan, maqomlar shakl-tuzilishi jihatidan juda salobatli san'at namunalaridir. Ulkan va hashamatli me'moriy obidalarga qiyoslanishi mumkin bo'lgan ko'p qismli maqomlarning yuzaga kelishida kasbiy musiqa ijodkorlari - bastakorlik ijodi bilan birga yana musiqa ilmi (musiqashunoslik fani) ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Shu bois ham o'tmishda yashab ijod etgan ko'pgina mutafakkir olimlar, jumladan, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy va boshqalar maqomlarga doir muammolar yuzasidan ilmiy

risolalar yozganlar. Shu tariqa nafaqat maqom ijrochiligi va ijodkorligi, balki maqom nazariyasi fani ham rivoj topib keldi.

«Maqom» atamasi asli arabcha boʻlib, koʻp maʼnolarni, shu jumladan, «oʻrin», «joy», «daraja», «martaba», «manzilgoh» kabi tushunchalarni ifodalaydi. Uning dastlabki musiqiy istilohi esa «cholgʻu asboblari toʻvush hosil etiladigan joy» (I.Rajabov), yaʼni parda maʼnosiga bogʻliqdir. Yana boshqa koʻpgina mazmun jihatlari ham aynan shu pardalarga bevosita bogʻlanadi: maqom - bu mukammal pardalar uyushmasi va doyra usullari mushtarakligida ijod etilgan cholgʻu kuy va ashulalar majmuasidir.

Hozir Oʻzbekistonda maqomlarning uch turi mavjud boʻlib, ular quyidagicha nomlanadi:

1. Olti maqom (Shashmaqom yoki Buxoro maqomlari).
2. Xorazm maqomlari.
3. Fargʻona - Toshkent maqom yoʻllari.

● **Musiqqa tinglash.** «Samoi dugoh» maqom cholgʻu kuyini tinglab, ijrodagil cholgʻularni aniqlang.

SAMOI DUGOH

M.M. q = 72

The musical score is written for a two-staff instrument. It begins with a treble clef, a key signature of one sharp (F#), and a time signature of 2/4. The tempo/meter marking is 'M.M. q = 72'. The score is divided into three systems. The first system contains 8 measures, the second system contains 8 measures, and the third system contains 4 measures. The melody is written on the upper staff, and the accompaniment is written on the lower staff. The piece concludes with a double bar line and repeat dots.



▲ **Aytim.**




△ «Savti Kalon Qashqarchasi» maqom aytimini bir bayt asosida matnga qarab kuylang.

SAVTI KALON QASHQARCHASI

Avaz g'azali

«Rost» maqomidan





Musiqa savodi. Q a s h q a r c h a u s u l i.
Qashqarcha nomli zarb usuli 4/4 o'lchovida namoyon bo'lib,
ritm tuzilishi jihatidan quyidagi ko'rinishga ega:



Bu usulning an'anaviy og'zaki («bum-bak» bo'g'inlaridagi) ifodasi quyidagicha:

Bum-ba-ka-bum-bak, bum.

Qashqarcha Soqiynomaga o'xshash o'lchov-ritmi jihatlarini bilan raqsbop usullardan hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. «Maqom» atamasi haqida qanday tushunchaga egasiz?
 2. Qashqarcha zarb usulini yod oling.

O'N IKKI MAQOM

Maqom san'ati tarixini o'rganishda O'rta asrlar (XIII - XVII) Sharq olamida mashhur bo'lgan O'n ikki maqom tizimi muhim o'rin tutadi. Chunki, mutaxassislarning fikricha, bizga qadar yetib kelgan maqomot turlari (Shashmaqom, Xopazm maqomlari, Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari) aynan shu O'n ikki maqom asosida shakllangan ekan.

Shuni aytish kerakki, O'n ikki maqom tizimining bizning diyorimizda uzil-kesil qaror topishi va uning ilk mumtoz ko'rinishi Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davriga to'g'ri keladi.

Mazkur maqomlarning buyuk davlat saroy musiqasidan munosib o'rin olishida bobomiz Amir Temurning xizmatlari katta bo'lgan. Zero, Hazrat Sohibqironning bevosita sa'y-harakatlari ila bu murakkab san'at ilmining bilimdon ustozlari turli mamlakatlardan bizning diyorimizga keltirilgan edi. Muarrir ibn Arabshohning «Temur tarixida taqdir ajoyibotlari» kitobida ta'kidlanishicha, Samarqandga keltirilganlar qatorida mashhur musiqachi va musiqa ilmida ustoz Abdulqodir al-Marog'iy va uning o'g'li Safiuddin, kuyovi Nasriyn, Qutb al-Mousilin, Ardasher al-Changiy va boshqalar bo'lgan. Muhimi, bu ustozlarning ilmiy-amaliy faoliyat ko'rsatishlari uchun saroyda zarur shart-sharoit yaratib berilgan edi. Shu asnoda tovush-pardalarining musiqa amaliyoti uchun zarur bo'lgan eng mukammal uyushmalari aniqlanib, shulardan «maqom» nomini olgan 12 tasi oliy navli deb topilgan. Bu maqomlar quyidagicha xususiy nomlarga ega: Ushshoq, Navo, Busalik, Rost, Husayniy, Hijoz, Rohaviy, Zangula, Iroq, Isfahon, Kuchak (Zirafkand), Buzruk.

Shuni aytish kerakki, O‘n ikki maqom tartibida musulmonlarning ulug‘ haj safariga ham ishoralar mavjud bo‘lgan. Bunda, ayniqsa, «Hijoz» va «Iroq» maqomlarining nomlari serma‘no tushunilgan.

Hijoz — muqaddas Makkai Mukarrama va Madinai Munavvara shaharlari joylashgan sarhadni anglatrsa, Iroq — ma‘lum mamlakat nomiga nisbat beriladi. Ma‘lumki, o‘tmishda muqaddas Hijoz manziliga yetishmoq yo‘lida Iroq cho‘llaridan o‘tilgan. Shularni nazarda tutgan holda «Hijoz» va «Iroq» nomlari ulug‘ haj safariga tashbeh etilgan. Bunga quyidagi she‘riy misralar ham misol bo‘lishi mumkin:

Gar Sifohonda Navo topmasang, ey yori Buzurg,
Qilg‘asan, azmi Iroq, aylab ohangi Hijoz.
(Hofiz Xorazmiy)

Ey Navoiy, sen dog‘i qilsang tama‘ sayri Hijoz,
Qil Iroq ohangi, tark aylab Xuroson men kebi.
(Alisher Navoiy)

Shunday qilib, aytish mumkinki, O‘n ikki maqom tizimi doirasida yuksak insoniy tuyg‘ular, ustuvor ijtimoiy g‘oyalar tarannum etilgan edi. O‘n ikki maqom an‘analari temuriylar davrida va undan keyingi asrlarda ham ijodiy davom ettirilib, jumladan, XVIII — XIX asrlarda «Shashmaqom», «Xorazm maqomlari» va «Farg‘ona — Toshkent maqom yo‘llari» kabi maqomotning yangi turlari qaror topishida muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

● **Musiqa tinglash.** «Qo‘shchinor» ashulasini tinglab tavsif eting.

QO‘SHCHINOR

Shoshmasdan *O‘zbek xalq qo‘shig‘i*

Ju - nun to -

shin u - rib har - yon

yan-gi do - g'im - ni af - gor

et, ti-lim - din lo -

la-dek ishq ich - ra bo - shim -

ni na-mu - - dor et.

Chu maj - nun

qil - ding en-di, ey,

mu-g'a - niy go' - sha to - bing -

ni ko'n-gul sav - do -



Topshiriqlar

- ?
1. «Qo'shchinor» ashulasida qo'llangan intervallarni aniqlang.
 2. «Savti kalon qashqarchasi» g'azalini yod oling.

SHASHMAQOM

Shashmaqom — bu Olti maqom degani bo'lib, u quyidagi maqomlardan tashkil topadi:

- I. Buzruk — ma'nosi «katta», «ulug'», «buyuk».
- II. Rost — ma'nosi «to'g'ri», «chin», «haqiqiy».
- III. Navo — ma'nosi «kuy», «mungli kuy».
- IV. Dugoh — ma'nosi «ikki o'rin», «ikki joy», «ikki parda».
- V. Segoh — ma'nosi «uch o'rin», «uch joy», «uch parda».
- VI. Iroq — ma'nosi shu nomli arab mamlakatiga nisbat berilgan.

Shashmaqom XVIII asr o'rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlari tomonidan Olti maqomdan iborat turkum tarzida ifoda etilgan edi. Bunda olti xil mukammal parda — tuzuklar uyushmasi bosh omil sifatida olinib, ularning muayyan doyra usullari bilan (birikuvi) birligi asosida ijod etilgan cholg'u kuy va aytim (ashula) yo'llari alohida-alohida turkumlarga birlashtirilgan. Demak, Shashmaqom, eng avvalo, oltita mukammal pardalar uyushmasini anglatar ekan. Maqom cholg'u kuy va aytim (ashula) turkumlari esa ana shu mukammal pardalarning ma'lum doyra usullari bilan mushtarakligi natijasida yuzaga keladi.

Shashmaqomdagi har bir maqom ikki yirik bo'limdan — cholg'u va aytim (ashula) yo'llari (turkumlari) dan iborat bo'lib, ularni «ustoz-shogird» an'anaviy maktabida tahsil ko'rgan malakali kasbiy cholg'uchi va ashulachi-hofizlarga mukammal ijro eta oladilar.

Maqomlar asosan ogʻzaki anʼana tarzida, yaʼni ustozdan shogirdga «ogʻzaki uslub» vositasida oʻtib, yashab keldi. Shunga binoan, shogirdlar oʻz ustozlari ijrosidagi maqom namunalarini xotiralariga muhrlab, amaliy ijrolar jarayonida oʻrganib kelganlar va ularni ijodiy oʻzlashtirganlar. Shuni aytish kerakki, garchand Sharq olimlari tomonidan oʻziga xos musiqiy «nota» yozuvi yoʻllari ixtiro etilgan boʻlsa-da, ammo ular amaliyotda keng joriy boʻlmagan edi.

Maqomlarni besh chiziqli nota tizimi asosida yozib olish ishlari XX asr davomida bir necha bor amalga oshirildi. Xususan, taniqli kompozitor va etnograf V.A.Uspenskiy (1879-1949) XX asrning 20-yillarida Buxoroda maqomchi ustozlar - hofiz Ota Jalol Nosir va tanburchi Ota Gʻiyos Abdugʻanilar ijrosida salobatli Olti maqom tizimini nota yozuvlarida ilk bor muhrlaydi. Shuningdek, akademik Yunus Rajabiy (1897-1976) ham Olti maqom tizimini ikki bor-50-yillar va 60-70-yillar davomida nota yozuvlarida bosmadan chiqardi.

● Musiqi tinglash.

TASNIFI ROST

Vazmin
1 Xona

«Rost» maqomidan




Bozgo'y



▲ Aytim. Mashqlar.

a) Shoshmasdan



b) «Iroq» asosida



KENG TURKISTON



Po'lat Mo'min she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Marsh sur'atida



Keng Tur-kis-ton teng u - yi - miz,



Keng Turkiston teng uyimiz,
Birgalashsa dil-o'yimiz,
Yashnamog'in Turon zamin
Do'stlik baxti etar ta'min.

N a q a r o t :

Do'stligimiz bo'lsa shunday:
Yana yashnab kulsa kunday.
Qo'lni qo'lga bersa millat,
Tinch-u obod yurt-u elat.

N a q a r o t :

Turkistonning osmoni keng,
Kulaversin armoni teng,
Gullayotgan bo'stoni keng,
Ipak yo'li karvoni teng.

Chorlaganda o'z bag'riga
Do'stlar qonar do'st mehriga.
Osoyishta ona diyor
O'ktamlikda o'z o'rni bor.

N a q a r o t

Savol va topshiriqlar

- ? 1. Shashmaqom tarkibidagi Olti maqom qanday nomlanadi?
2. «Keng Turkiston» qo'shig'ining uch band she'ri va naqarotini yod oling.

SHASHMAQOM CHOLG'U (MUSHKILOT) KUYLARI


Olti maqom tizimidagi har bir maqom ikki yirik bo'lim - cholg'u va aytim (ashula) yo'llaridan tarkib topishi aytilgan edi. Maqomlarning cholg'u kuylar bo'limi Buxoro an'anasiga ko'ra «Mushkilot» deb yuritiladi. «Mushkilot» bo'limi besh asosiy qismdan iborat bo'lib, ular quyidagicha nomlanadi:

- | | |
|-------------|--|
| 1. Tasnif | - tasnif etilgan, ijod etilgan, mukammal asar. |
| 2. Tarje | - qaytariq, takrorlash, takrorlanuvchi. |
| 3. Gardun | - falak gardishi, qismat. |
| 4. Muxammas | - beshlik, beshlangan. |
| 5. Saqil | - vazmin, og'ir. |

Shuni aytish kerakki, garchand maqom cholg'u kuylarining nomlari serjihat ma'nolar kasb etsa-da, ammo ularning deyarli barchasi maqom «matnida», eng avvalo, doyra usullari mazmunida

qo‘llaniladi. Binobarin, «Gardun», «Muxammas» yoki «Saql» deyilganda, birinchi navbatda, ma‘lum doyra usullari nazarda tutiladi.

Maqomlarning «Mushkilot» cholg‘u bo‘limlari «Tasnif» nomli kuylar bilan boshlanadi. Bu atama «Olti maqom» ning har biriga qo‘shilib, «Tasnifi Buzruk», «Tasnifi Rost», «Tasnifi Navo», «Tasnifi Dugoh», «Tasnifi Segoh» va «Tasnifi Iroq» kabi ataladi. Tasniflarda, odatda, 2/4 o‘lchov-ritmida bo‘lgan doyra usuli qo‘llaniladi. Ustozlar an‘anasida bu usul «bak-bak, bum-bum, bak-ist, bum-ist», deb ifoda etiladi. Nota yozuvlarida esa quyidagicha aks etadi:



Tasnif cholg‘u kuylarining shakl topishida «xona» va «bozgo‘y» nomli kuy tuzilmalari muhim o‘rin tutadi. «Xona» (*fors. toj. - uy*) - o‘zgaruvchan kuy tuzilmasi bo‘lib, u asar davomida bir necha bor takrorlanadi va galdan galga parda tovushlari ortib, ovoz hajmi ham kengayadi. Shu tariqa xona kuyning avji sari intilib, taraqqiy etadi va avj holatiga yetishadi. Bozgo‘y kuy tuzilmasi esa, «xona»dan farqli o‘laroq, doimiy barqarorlikka ega. Zero, u asarning boshidan oxiriga qadar o‘zining dastlabki ohang tuzilish qiyofasini muqim saqlaydi. Bu o‘rinda «bozgo‘y» tuzilmasi o‘zining o‘zgarmas takrori bilan qo‘shiq-yallalardagi naqarot xususiyatini yodga soladi.

Maqom cholg‘u kuylarini ijro etishning ikki asosiy ko‘rinishi - yakkanavoz (yakka sozda) va ansambl (dasta) shakllari yuzaga kelgan. Tanbur torli-chertma sozi yetakchi cholg‘u sifatida kasbiy musiqachilar orasida keng qo‘llaniladi. Doyra esa zarb usullarini sadolantirish bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, maqom cholg‘u kuylarini g‘ijjak, dutor, nay, rubob, qo‘shnay kabi cholg‘ularda ham yakka holda ijro etish mumkin. Ansambl ijrochiligi tarkibida esa tanbur va doyra qatoriga yana dutor, nay, qo‘shnay, g‘ijjak yoki sato (yoki qo‘biz), chang, qonun, ud, rubob kabi cholg‘ular qo‘shilishi mumkin. Buxoro musiqa amaliyotida tanbur, nay va doyra sozlaridan iborat cholg‘u ansambli an‘anaviy tus olgan.



Musiq a tinglash.

TASNIFI BUZRUK

M.M. ♩ = 84-88

«Buzruk» maqomidan




«Savti Kalon Soqiynomasi» maqom aytimini uch bayt gʻazal asosida (matnga qarab) kuylang.



SAVTI KALON SOQIYNOMASI


Bobur gʻazali

M.M. ♩ = 108

«Rost» maqomidan








Keltursa yuz baloni o'shal bevafo menga,
Kelsun, agar yuzumni evursam balo menga.


Netgaymen ul rafiq bilakim qilur base,
Mehr-u vafo raqibg'a, javr-u jafo menga.

Begona bo'lsa aql meni telbadin ne tong,
Chun bo'ldi ul pari sifatim oshno menga.

Musiqa savodi. U f a r. Ufar—raqsbop doyra usullaridan bo'lib, ikki asosiy ko'rinishda namoyon bo'ladi: 1. Yengil Ufar. 2. Og'ir Ufar. Yengil Ufar, odatda, 6/8 ritm o'lchovida bo'ladi. Bunga Samarqand Ufaridagi usul misol bo'la oladi:



Og'ir Ufar 3/4 ritm o'lchovida bo'lib, u quyidagi ko'rinishga ega:



Savol va topshiriqlar

- ?
1. Shashmaqomning «Mushkilot» bo'limida mavjud bo'lgan beshta asosiy kuylar nomi qanday ataladi?
 2. «Tasnif» doyra usulini yod oling.
 3. «Savti Kalon Soqiynomasi» aytimining uch bayt (6 misra) g'azalini yod oling.

SHASHMAQOM AYTIM (NASR) YO‘LLARI

Shashmaqom an‘anasiga ko‘ra, dastavval, cholg‘u bo‘limi - «Mushkilot» kuylari («Tasnif», «Tarje», «Gardun» va h.k.) birin-ketin beto‘xtov ijro etilib, yaxlit turkumni tashkil etadi. Bunda doyra usullari qismdan qismga qarab murakkablashib boradi. Cholg‘u bo‘limining so‘nggi «Saqil» nomli kuyi ijro etilgach, maqomning aytim (ashula) bo‘limiga o‘tiladi.

Maqomlarning aytim (ashula) bo‘limi umumiy nom bilan «Nasr» deb ataladi. Nasr - arabcha «ko‘mak», «zafar» demakdir. Maqom ashulalari aytim san‘atining murakkab va mukammal namunalarini namoyon etadi. Shu bois ham ularni kuylash uchun maxsus amaliy malaka va ijroviy mahorat talab etiladi. Bunga erishish uchun esa musiqiy tahsilning «ustoz-shogird» an‘anasi qo‘llanib kelingan. Ushbu an‘anaga binoan, maqomchi ustoz o‘z san‘atini o‘rgatish va shu tariqa meros qoldirish yo‘lida o‘ziga qobiliyatli shogird tanlagan. Shogird ustozning maqom ashulachiligi bobidagi mahoratini ko‘p yillar (7-10, hatto 10-15 yil) davomida bosqichma-bosqich egallab borgan. Bu jarayonda nota yozuvlari kam ahamiyatli bo‘lib, shogirdlar ustozlarining namunaviy ijrolarini asosan «tinglash, idrok etish» bilan xotiralariga muhrlaganlar va maxsus mashqlar orqali ularni amaliy o‘zlashtirib borganlar. Shuningdek, maqom ashulalarida qo‘llangan aruz vaznidagi ko‘plab she‘riyat (Rudakiy, Tabriziy, Rumi, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Hofiz, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Mashrab va boshqalar ijodi) namunalarini yod olishlari lozim edi. Bundan tashqari, jo‘rnavor sozlar qatorida doyra usullarini hamda tanbur va dutor ijrochiligini zaruriy darajada o‘zlashtirganlar.

Demak, maqomlarni o‘rganish va so‘ngra ularni ijro etishda xotira kuchi nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekan. Shuni nazarda tutib, maqomlarning aytim (ashula) yo‘llari ijrochilarini «Hofiz» deb ham atashadi. Bu atama esa arab tilida «saqlovchi», ya‘ni «xotirasida saqlovchi», «yod biluvchi» ma‘nolarini anglatadi. Shuni ta‘kidlash joizki, maqom hofizlari kuchli, yuqori pardalarni zabt eta oladigan va, ayni vaqtda, xushovoz sohiblari bo‘lmoqlari lozim.


Maqom hofizlari o‘z san‘atlarini xalqqa namoyish etishda (to‘y-hasham va boshqa tadbirlarda) mas‘uliyat bilan ish tutganlar, ya‘ni har bir maqomning aytim yo‘li puxta ishlanib, qiyomiga yetgach, u xalq orasida ijro etilgan. Shogirdlar esa ustozlaridan beijozat omma oldida kuylamaganlar. Ijrochiligi yetuk darajaga erishgan shogirdlargina ustozlar duosini olib, xalq xizmatiga bel bog‘laganlar.

MO'G'ULCHAI DUGOH QASHQARCHASI

Fuzuliy g'azali

«Dugoh» maqomidan

M.M. ♩ = 104-88



Bir gun o'l-maz tal' - a - ting ko'r -
mak mu-yas - sar, oh - kim, o,
Zar - ra - cha ul
kun yo - nin - da e' - ti - bo - rim
qol - ma - di. Zar - ra - cha ul
kun yo - nin - da e' - ti - bo - rim
qol - ma - di.

▲ **Aytm.** Mashqlar:

a)

b)

(ba-ka ba-ka bum, bum)

△ «Mo'g'ulchai Dugoh Soqiynomasi» maqom aytimini kuylashga o'rganing.



MO'G'ULCHAI DUGOH SOQIYNOMASI

Nodira g'azali

M.M. ♩ = 112

«Dugoh» maqomidan

Kel, dah-ri-ni im - ti - hon e - tib



Kel, dahrini imtihon etib ket,
Sayri chamanni jahon etib ket.

Bedardlaring jafolaridin
Faryod chekib, fig'on etib ket.

- ?
1. Shashmaqom aytim yo'llarining umumiy nomini ayting.
 2. Shashmaqom aytim yo'llarida asosan qaysi vazndagi she'rlar qo'llaniladi?
 3. «Mo'g'ulchai Dugoh Soqiynomasi» aytimining ikki bayt (to'rt misra) g'azalini yod oling.



Mustaqil o'qing.

HOJI ABDULAZIZ RASULOV

Samarqandlik mashhur hofiz va bastakor, O'zbekiston xalq artisti Hoji Abdulaziz Rasulov (1852-1936) tanbur va dutor chertish hamda ashula aytish yo'llarini mukammal egallagan san'atkor edi. Jumladan, u tanburda maqom cholg'u kuylarini ijro etishni tanburchi - san'atkor Hoji Rahimberdidan, ashula san'atini



Hoji Abdulaziz Rasulov

ni esa avvaliga taniqli hofiz Boruxdan, keyinchalik Buxoroda ustoz-maqomdon Ota Jalol Nosirdan o'rgandi.

Abdulaziz Rasulov muqaddas Makkai Munavvaraga hajga borib, «hoji» nomiga sazovor bo'lgan edi. Hoji Abdulaziz Rasulov ijrochilik bisotida (repertuarida) 200 dan ziyod ashula va cholg'u kuylari bo'lib, bunda hofiz ashula yo'llarini Buxoro - Samarqand an'anasiga oid o'zbek va tojik tillarida kuylagan. Shu bilan birga H.A.Rasulov nafaqat Buxoro - Samarqand musiqasiga doir boshqa mahalliy an'analarni ham ijodiy o'zlashtira olgan edi.

Xususan, Buxoro - Samarqand hofizlari maqom ashula yo'llarini tanburda jo'rsozlik qilib aytsalar, H.A.Rasulov bu o'rinda dutorni ham qo'llayvergan. Maqom ijrochiligida dutordan foydalanish amaliyoti esa Xorazm va Farg'ona - Toshkent musiqa uslublariga ko'proq xosdir.

H.A.Rasulov Xorazm kuylarini, jumladan, dostonchilik aytimlarini ham yaxshi bilgan bo'lib, ulardan o'z ijodida unumli foydalangan. Chunonchi, ustozning «Bozurgoniy» deb nom olgan ashula namunasi Xorazm doston kuylari asosida, mashhur «Guluzorim» nomli ashulasi esa Farg'ona cholg'u kuyi bo'lgan «Eshvoy» asosida ijod etilgan.

«SARAXBOR» AYTIM YO'LLARI

Buxoro maqomlarining «Nasr» nomli aytim yo'llari (yoki ashula bo'limlari) ikki guruhdan iborat ashula turkumlariga bo'linadi. Birinchi guruhning tarkibi, odatda, «Saraxbor», «Talqin», «Nasr» deb nomlanuvchi asosiy aytim yo'llari hamda ularning Taronalari va yakuniy Ufar ashula qismlaridan tashkil topadi. «Saraxbor» (*fors. toj. sar* - bosh; *arab. axbor* - xabarlar, bosh mavzu) bosh xabar, bosh mavzu kabi ma'nolarda keladi. Zotan, har bir maqomning aytim yo'li «Saraxbor» bilan boshlanadi va shu tariqa uning kuy-ohangi, parda-tuzuk va umuman, shakl-u shamoyili qolgan ashula yo'llari (qismlari) uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. «Saraxbor» qaysi maqomga mansub bo'lsa, shu maqomning nomi bilan birga qo'shib aytiladi, ya'ni «Saraxbori Buzruk», «Saraxbori Rost», «Saraxbori Navo», «Saraxbori Dugoh», «Saraxbori Segoh», «Saraxbori Iroq» kabi.

«Saraxbor» lar (maqomlarning boshqa ashula yo'llarida bo'lgani kabi) yuksak ishq (tasavvufona ishq), diniy-falsafiy, pand-nasihat kabi mavzulardagi mumtoz she'riyat (Rudakiy, Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Munis she'rlari) namunalari asosida aytiladi. Ularning ichki shakl-tuzilishini quyidagicha tavsiflash mumkin:

a) Dastlab kirish qismi bo'lgan *muqaddimada* cholg'u kuyi yangraydi.

b) Hofiz she'r asosida ashula ayta boshlagan vaqtdan e'tiboran *daromad* qismi boshlanadi. Odatda, daromad bir xat, ya'ni bir she'riy bayt (ikki misra), ba'zan esa ikki bayt (to'rt misra) asosida «o'qiladi». Shuningdek, unda unli harflar («o», «a») va undovli-undalma («yorey», «voyey», «jonimey» va h.k.) bilan aytiladigan ohanglar qo'llanishi mumkin.


d) *Miyonxat* - ashula kuyining oʻrta pardalarida (dastlabki tayanch pardadan kvarta yoki kvinta yuqorilab) davom ettirilishini, rivojlantirilishini anglatadi.

e) *Dunasr* - dastlabki daromad kuyini yuqori pardalarda (odatda, bir oktava yuqorilab) kuylash (aytish) da davom etish.

f) *Avj* - maqom ashulasining eng yuqori pardalarda aytiladigan muhim choʻqqi qismi. Bunda oʻzga kuy yoki ashula boʻlaklari qoʻllaniladi. Odatda, bunday «yangi» kuy tuzilmalari maqom ashula yoʻllariga oid boshqa qismlardan olinib, ijro etilayotgan «Saraxbor»ning doyra usuliga muvofiqlashtirilgan holda aytiladi. Bu hol maqomchilikda «namud» (*fors.-toj.* soʻz - koʻrinish, namoyon boʻlish maʼnosida) deb yuritiladi. «Namud» sifatida qoʻllangan kuy tuzilmasi oʻzining kelib chiqish manbaiga koʻra nom oladi. Bunda, masalan, «Segoh» maqomining kuy tuzilmasi qoʻllangan boʻlsa, u «Segoh namudi» (yoki «Namudi Segoh»), «Navo» maqomining «Bayot» qismidan kuy tuzilmasi qoʻllangan boʻlsa - «Bayot namudi», «Buzruk» maqomining «Uzzol» kuyidan parcha boʻlsa - «Uzzol namudi» kabi ataladi.

g) *Tushirim* (yoki Furovard), yaʼni avjdan soʻng ashula kuyining dastlabki tayanch pardasiga qaytib, yakunlanish qismidir.


«Saraxbor»lar, odatda, vazmin surʼatda, ulugʻvorlik bilan ijro etiladi. Ularda ikki hissali oʻlchovda boʻlgan oddiy doyra usuli qoʻllaniladi:



SARAXBORI SEGOH

Navoiy gʻazali

«Segoh» maqomidan


M.M. 



Bag' - rim - ni ti - g'i
 xajr i - la yuz po - ra qil - di-lar,
 To yo - r(i) ko' - yi -
 din me-ni o - vo - ra
 qil - di - lar.

▲ Aytim.

a)



b)



 **Notaga qarab kuylang.**

NAVRO'ZI AJAM

Toshkent— Farg'ona maqom yo'li






Savol va topshiriqlar

- ?
1. «Saraxbor» aytim yo'llari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
 2. «Muqaddima», «daromad», «miyonxat», «dunasr», «avj», «tushirim» (yoki «furovard») kabi tushunchalarni qisqacha izohlab bering.
 3. «Mo'g'ulchai Dugoh Soqiynomasi»ni yod oling.

«TALQIN» VA «NASR» AYTIM YO'LLARI

«Saraxbor»lar misolida ko'rib o'tilgan shakliiy tuzilma («muqaddima», «daromad», «miyonxat», «dunasr», «avj», «tushirim») qolipi «Talqin» va «Nasr» nomli aytim yo'llari uchun ham asos etib olinadi. Ammo «Talqin» va «Nasr» aytim yo'llari «Saraxbor»larga nisbatan doyra usullari jihatidan farq qiladi: «Saraxbor»larda ikki hissali doyra usuli oddiy shaklga ega bo'lgani holda, «Talqin» va «Nasr» qismlarida murakkab ko'rinishga ega zarb usullari qo'llaniladi.



Binobarin, «Saraxbor», «Talqin» va «Nasr» aytim yo‘llari turlicha doyra usullarida ijro etilarkan, ularning biridan ikkinchisiga mantiqiy bog‘lanishida «Tarona»lar «ko‘prik» bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, «Saraxbor» ashula yo‘li ijro etilgach, unga ulanib oltitacha «Tarona» kuylana boshlaydi. So‘nggi «Tarona» yakunida «Suporish» nomi bilan ma’lum kuy tuzilmasi namoyon bo‘ladi va uning vositasida keyingi asosiy ashula qismi - «Talqin» ga o‘tiladi. Bunda «Suporish» tuzilmasi orqali yangi ashulani (ya’ni «Talqin» ni) kuylashga zamin hozirlanadi, ya’ni «Suporish» davomida «Talqin» ashulasining doyra usuli o‘z aksini topadi hamda kuyning tayanch pardalari belgilanadi. «Talqin»dan «Nasr» ashulasiga o‘tish ham shu tariqa amalga oshadi, ya’ni bunda ham «Tarona - Suporish» vositasi qo‘llaniladi. Shuni ham aytish kerakki, «Saraxbor», «Talqin», «Nasr»lar yirik hajmli ashula yo‘llari bo‘lgani holda, ularning orasida bog‘lovchi tarzida keluvchi «Tarona»lar nisbatan kichik hajmli, ko‘proq ruboiylar bilan aytiladigan ashulalardir. Birinchi guruh ashulalar turkumi «Ufar» va uning yakunida namoyon bo‘luvchi «Suporish» bilan o‘z nihoyasiga yetadi. Mazkur aytimlar turkumini quyidagicha tasvirlash mumkin:

NASR BO‘LIMI

Birinchi guruh aytimlari:

1. Saraxbor - bosh xabar, bosh mavzu.
Tarona (I - IV, I - VI).
2. Talqin (*arabcha*) - pand-nasihat, tushuntirish, ko‘rsatma berish.
Tarona (*fors-toj.*) - qo‘shiq, ashula.
3. Nasr (*arabcha*) - ko‘mak, zafar, g‘alaba.
Tarona.
4. Ufar.




Musiqa tinglash. «Nasrulloiy» aytim yo‘lini tinglang.


NASRULLOIY

Navoiy g‘azali

M.M. ♩ = 84-88

«Buzruk» maqomidan





 Notaga qarab kuylang.


OLMANI OTDIM

O'zbek xalq kuyi

O'rtacha tez




ATOQLI MAQOM IJROCHILARI



Ota G'iyos Abdug'ani



Ota Jalol Nosir



Domla Halim Ibodov



Karim Mo'minov



«Mustazodi Navo Soqiynomasi» maqom aytimini ikki bayt
(4 misra) gʻazal asosida kuylang.

MUSTAZODI NAVO SOQIYNOMASI

Nishotiy gʻazali

M.M. ♩=112-120

«Navo» maqomidan

The musical score is written on eight staves in 4/4 time, using a key signature of one flat (B-flat). The melody is primarily composed of eighth and quarter notes, with some half notes and rests. The lyrics are written below the staves, aligned with the corresponding notes. The score includes repeat signs (double bar lines with dots) at the beginning of the third, fifth, sixth, and eighth staves. The lyrics are: Ey moh, sen - ga yuz ja - hon ta - sad - duq, Jon la' - ling - ga ro - ya - gon ta - sad - duq. Be-mor e - sa nar-gi-zi - si-yah mast. Men o - ji - zu no -

Ey moh, sen - ga yuz

ja - hon ta - sad - duq,

Jon la' - ling - ga ro - ya -

gon ta - sad - duq.

Be-mor e - sa nar-gi-zi - si-yah

mast. Men o - ji - zu no -



Ey moh, senga yuz jahon tasadduq,
Jon la'lingga royagon tasadduq.

Bemor esa nargizi siyah mast,
Men ojiz-u notavon tasadduq.

Topshiriqlar

- ?
1. «Talqin» aytim yo'li haqida qisqacha gapirib bering.
 2. «Nasr» aytim yo'li haqida qisqacha gapirib bering.
 3. «Talqin» va «Nasr» zarb usullarini yod oling.



Mustaqil o'qing.

OTA JALOL NOSIR

Buxoro maqomlarining taniqli va mashhur ijrochilari qatorida Ota Jalol Nosir, Ota G'iyos Abdug'ani, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Levi Boboxonov va boshqalarning nomlarini alohida aytib o'tish kerak.

Ota Jalol Nosir (1845-1928) Buxoro Olti maqomini juda yoshligidan o'rgana boshlaydi. Dastlab uni bu san'at bilan onasi tanishtiradi. Keyinchalik esa mashhur hofiz va cholg'uchi Tillaboy ustozligida puxta o'zlashtiradi. XIX asrning 60-yillaridan to XX asrning dastlabki o'n yilliklariga qadar Buxoro amirligi saroyida hofiz sifatida xizmat qiladi. Sho'ro davriga kelib, Buxoroda ochilgan «Sharq musiqa maktabi»da ustozlik qiladi va ko'plab shogirdlar yetishtiradi.

Ota Jalol Nosir xalqimizning ulkan ma'naviy xazinasini bo'lgan Olti maqomni mukammal bilgan va uni saqlab qolishda katta xizmat ko'rsatgan san'atkordir. Ma'lumki V.A.Uspenskiy 20-yillarning boshlarida salobatli Olti maqom turkumini Ota Jalol Nosir va tanburchi Ota G'iyos Abdug'anilar ijrosida ilk bor nota yozuvlariga tushirgan edi. Shu tariqa maqomning umuman yo'q bo'lib ketishi xavfi bartaraf etiladi. Chunki, bu san'atning bilimdoni va amaliy ijrochisi bo'lgan ustoz-sozanda va ustoz-hofizlar nihoyatda ozchilikni tashkil etardi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Maqom haqida umumiy tushuncha bering.
2. O‘n ikki maqom nomlarini ayting.
3. Shashmaqom tarkibidagi maqomlar nomini ayting.
4. «Tasnif» doyra usulini «bum-bak» bo‘g‘inlarida ifoda eting (ayting).
5. «Mushkilot» bo‘limi tarkibidagi beshta asosiy cholg‘u kuylari nomini ayting.
6. «Nasr» bo‘limining asosiy aytim (ashula) yo‘llari qanday nomlar bilan ataladi?
7. «Qashqarcha» doyra usulini «bum-bak» bo‘g‘inlarida ifoda eting (ayting).
8. Chorak davomida o‘rganilgan qo‘shiqlardan 2-3 namuna kuylab bering.

Musiqalug‘ati

- | | |
|---------------------------|--|
| 1. <i>A v j</i> — | osmon, ko‘k, yuksalish va uning eng yuqori cho‘qqisi. Maqom cholg‘u kuy va aytimlarining yuqori pardalardagi eng rivojlangan darajasi. |
| 2. <i>B o z g o‘ y</i> — | maqom cholg‘u kuylari (Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas, Saqil) da o‘zgarmay takrorlanuvchi kuy tuzilmasi. |
| 3. <i>B u z r u k</i> — | buyuk, katta, ulug‘. Shashmaqom tizimidagi birinchi maqom nomi. |
| 4. <i>D a r o m a d</i> — | yo‘ning boshlanishi. Maqom aytim yo‘llari (Saraxbor, Talqin, Nasr va b.q.) da ashulaning boshlanish (hofiz kuylashni boshlagan) qismi. |
| 5. <i>D u g o h</i> — | ikki joy, ikki o‘rin, ikki parda. Qadimda ikki parda (tovush) asosida ijro etilgan kuy nomi. Keyinchalik (O‘rta asrlarda) rivojlantirilib, keng nafasli kuy holiga keltirilgan. Shashmaqom tizimida to‘rtinchi maqom nomi. |
| 6. <i>D u n a s r</i> — | maqomlarda boshlang‘ich kuy yoki aytim tuzilmasi (bo‘lagi)ning yuqori (odatda, bir oktava yuqori) pardalarda takrorlanishi. |
| 7. <i>I r o q</i> — | Arabistondagi ma‘lum mamlakat nomi. «Uzoq», «Olis yo‘l» ma‘nolarida ham keladi. Shashmaqom tizimidagi oltinchi maqom nomi. |

8. *M u s h k i l o t* — qiyinchiliklar. Shashmaqom cholgʻu kuylari boʻlimining umumiy nomi.
9. *M i y o n x a t* — maqom aytim yoʻllarida ashulaning oʻrta pardalarda (odatda, daromadga nisbatan kvarta-kvinta balandlikda) ijro etiladigan boʻlagi, tuzilmasi.
10. *N a s r* — koʻmak, zafar, gʻalaba (proza). Shashmaqom aytim yoʻllari boʻlimining umumiy nomi.
11. *N a v o* — kuy, nolali ohang. Shashmaqom tizimidagi uchinchi maqom nomi.
12. *R o s t* — toʻgʻri, chin, haqiqiy. Shashmaqom tizimidagi ikkinchi maqom nomi.
13. *S e g o h* — uch joy, uch oʻrin, uch parda. Qadimda uch parda (tovush) asosiga qurilgan kuy nomi. Oʻrta asrlar kasbiy musiqa amaliyotida rivojlantirilgan va keng nafasli kuy shakliga keltirilgan. Shashmaqom tizimidagi beshinchi maqom nomi.
14. *X a t* — maqom aytim yoʻllarida ashulaning bir bayt (ikki misra) sheʼr bilan aytiladigan kuy tuzilmasi, boʻlagi.
15. *X o n a* — uy, nisbiy tugal shakldagi kuy tuzilmasi (xonasi). Xona Bozgoʻydan farqli oʻlaroq, oʻzgaruvchanlik xususiyatiga ega boʻlib, kuyning oʻz avji (choʻqqisi) tomon rivojida muhim oʻrin tutadi.
16. *Shashmaqom* —
1. Har biri oʻz nomiga ega olti xil mukammal pardalar uyushmasi: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq.
2. Oltita mukammal pardalar uyushmasi va muayyan doyra usullari birligi asosida ijod etilgan cholgʻu kuy va aytim (ashula) lar turkumi (majmuasi).
17. *Oʻn ikki maqom* —
(*Duvozdah maqom*) XIII-XVII asrlarda Sharq musiqa amaliyotida mashhur maqomlar tizimi: Ushshoq, Navo, Busalik, Rost, Husayniy, Hijoz, Rahoviy, Zangula, Iroq, Isfaxon, Zirafkand, Buzurg (Buzruk). Oʻn ikki maqomning kuy, parda va doyra-usul asoslari Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari kabi maqomot turlari kelib chiqishida muhim oʻrin tutgan.

IV CHORAK

XORAZM MAQOMLARI. FARG‘ONA–TOSHKENT MAQOM YO‘LLARI

XORAZM MAQOMLARI

Xorazm maqomlari muayyan tizimdagi turkum shaklida XIX asrning birinchi yarmida qaror topgan bo‘lib, bu turkum Buxoro maqomlari singari, asosan, Olti maqomdan iborat:


1. «Rost» maqomi (yoki Maqomi «Rost»);
2. «Buzruk» maqomi (yoki Maqomi «Buzruk»);
3. «Navo» maqomi (yoki Maqomi «Navo»);
4. «Dugoh» maqomi (yoki Maqomi «Dugoh»);
5. «Segoh» maqomi (yoki Maqomi «Segoh»);
6. «Iroq» maqomi (yoki Maqomi «Iroq»).



Komil Xorazmiy

Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, Xorazm maqomlarining uzil-kesil qaror topishida Buxoro maqomchilik an'analari katta ta'sir ko'rsatgan. Bu o'rinda atoqli musiqachi Niyozjon Xo'janing xizmatlari alohida ko'rsatib o'tiladi. Shunga ko'ra, Niyozjon Xo'ja XIX asr boshlarida Buxoroga kelganligi va Olti maqom tizimini o'rganib, so'ngra bu san'atni Xorazm musiqachilariga o'rgatganligi aytiladi. Ayni vaqtda, maqomlar Xorazm sharoitiga moslanib, mahalliy badiiy an'alar bilan bog'liq jihatlariga ega bo'lganligi ham ta'kidlanadi. XIX asrda yashab ijod etgan shoir va musiqashunos olim Pahlavon Niyoz Muhammad (taxallusi –

Komil Xorazmiy, 1825 – 1897) o‘zi kashf etgan «Tanbur chizig‘i» nomli o‘ziga xos «nota yozuvi» vositasida Xorazm maqomlarini yozib olish tajribasini boshlab bergan edi. Bu ishini uning o‘g‘li – Muhammad Rasul Mirzaboshi davom ettirgan. O‘ng tomondan chapga qarab o‘qilgan mazkur «nota yozuvi»da tanbur pardalariga oid 18 ta muvoziy chiziqlar bo‘lgan va bunda sadolanishi (bosilishi) lozim bo‘lgan pardalar chiziqcha va nuqtalar asosida belgilangan.



Tanbur chizig‘idan namuna.

● **Musiqa tinglash.** Xorazm «Dugoh» maqomidan «Peshrav» kuyini tinglang.

M.M. $\text{♩} = 72-76$

Bozgo‘y





△ Qo'shiq kuylash.

TURKISTON FARZANDIMIZ

Tohir Mullaboyev she'ri

Dilorom Omonullayeva musiqasi

Tez

Yakkaxon Hamma

Bir dun-yo bo-la-lar-miz, Bir dun-yo bo-la-lar - miz,

Yakkaxon Hamma Yakkaxon

Oq, sa-riq, qo-ra tan-miz, oq, sa-riq, qo-ra tan-miz. Kim qa.

yer-da bo'l-ma-sin, Kim qa - yer-da bo'l-ma-sin,

Hamma



Turkiston farzandi - miz. Kim qa-yer-da bo'lmasin, kim qa-



yer-da bo'l-ma-sin Tur-kis - ton far - zan - di -

Yakkaxon



miz. Qo'l u - zat - sak o - lam-ni o - na-



miz-dek qu - cha-miz. Qo'-shiq



ayt - sak qo'-shi-lib, os-mon - lar-ga ye - ta -

Hamma




miz, Qo'l u - zat - sak o - lam - ni o - na-



miz-dek qu-cha - miz. Qo'-shiq



ayt-sak qo'-shi-lib os-mon lar-ga ye-ta -

1.  2. Tamomlash uchun 

N a q a r o t :

Bir dunyo bolalarmiz,
Oq, sariq, qora tanmiz.
Kim qayerda bo'lmasin,
Turkiston farzandimiz.

O'zbek, qozoq, qirg'izmiz,
Tojik, turkman elimiz.
Quchoq ochsak do'stlarga
Hech uzilmas zanjirmiz.

N a q a r o t :


Qo'l uzatsak olamni
Onamizdek quchamiz.
Qo'shiq aytsak qo'shilib,
Osmonlarga yetamiz.

Orzuimiz bir dunyo,
Yurtlarimiz tinch bo'lsin.
Zavqimizdan shu dunyo
Doim quvonchga to'lsin!

N a q a r o t

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Xorazm maqomlarini nomma-nom ayting.
 2. «Tanbur chizig'i» nomli «nota» yozuvi kim tomonidan kashf etilgan?
 3. «Turkiston farzandimiz» qo'shig'ini matnga qarab kuylang.
 4. Quyida berilgan notalardan yuqoriga qarab raqamlarga monand intervallar tuzing va ovozda mashq eting:



XORAZM MAQOMLARINING CHERTIM YO'LI

Xorazm maqomlari tuzilishi jihatidan Buxoro maqomiga aksariyat o'xshash hamda o'zgacha holatlarni namoyon etadi. Xususan, bu maqomlarning cholg'u-kuy yo'llaridan tashkil topgan bo'limi Shashmaqomdagi kabi «Mushkilot» deb emas, balki «Chertim yo'li» yoki «Mansur» kabi umumiy nomlar bilan yuritiladi. Shuningdek, cholg'u bo'limi — chertim yo'li tarkibida bizga Olti maqomdan ma'lum bo'lgan «Tarje», «Gardun», «Muxammas» va «Saqil» nomli kuylari bo'lgan holda, biroq «Tasnif» atamasi uchramaydi va uning o'rnida har bir maqomning nomi (masalan, «Maqomi Rost», «Maqomi Buzruk» va h.k.) yoki «Tani maqom» iborasi qo'llaniladi. Bundan tashqari, chertim yo'li bo'limlarida «Peshrav» va «Ufar» nomli qismlarning o'rni muqim tus olganki, bu hol Olti maqomga xos emasdir. Shuningdek, ma'lumki, Olti maqom cholg'u bo'limlari «Saqil» nomli kuylar bilan yakunlanar edi. Xorazm maqomlarida esa bu o'rinda «Ufar» nomli kuylar namoyon bo'ladi. Bu kabi o'zaro o'xshash va farqli jihatlarni yaxshi tasavvur etish maqsadida Shashmaqom va Xorazm maqomlarining «Rost» turkumidagi cholg'u kuylarini bir-biriga qiyoslab ko'rish mumkin:

Xorazm «Rost» maqomi Chertim yo'li:

1. Maqomi Rost.
2. Peshravi Gardun.
3. Muxammas I.
4. Muxammas II.
5. Muxammasi Ushshoq.
6. Saqili Vazmin.
7. Ufar.

Buxoro «Rost» maqomi «Mushkilot» bo'limi:

1. Tasnifi Rost.
2. Garduni Rost.
3. Muxammasi Rost.
4. Muxammasi Ushshoq.
5. Muxammasi Panjgoh.
6. Saqili Vazmin.
7. Saqili Rak-Rak.

Chertim yo'li kuylarining ichki shakl-tuzilishlarida Olti maqomning «Mushkilot» kuylaridan ma'lum bo'lgan «xona-bozgo'y» nisbatlari namoyon bo'ladi.

Xorazm maqomlarining cholg'u kuylari ijro etilganda tanbur va doyra sozlari muhim o'rin tutadi. Tanburda maqomning kuyi, doyrada esa usul yo'li chertiladi. Shuningdek, chertim yo'llarida ikki tanbur, bir g'ijjak, bir bulamon va doyra cholg'ularidan iborat

an'anaviy dasta ham namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, Xorazmda ayrim maqom yo'llarini dutorda ham ijro etish an'anasi mavjud. «Qari Navo» kuyi bunga misoldir.

● Musiqa tinglash.

QARI NAVO

«Navo» maqomidan

M.M. ♩ = 116-120



SAVTI NAVO QASHQARCHASI

Ogahiy g'azali

«Navo» maqomidan

M.M. ♩ = 104-108



Kel - gil, ey o - ro - mi - jon, ol -



di qa - ro - rim in - ti - zor,



Yo' - ling uz - ra



tuf - roq et - ti jis - mi zo - rim



in - ti - zor.



Tun - kun af - g'on - lar che - kib,



el ich - ra ras - vo bo'l - mi-sham,



Qo'y-ma-mish ish - qing a - ro no -



mu - su o - rim in - ti - zor,



Qo'y-ma - mish ish - qing a - ro no -



mu - su o - rim in - ti - zor.

Kelgil, ey oromijon, oldi qarorim intizor,
Yo'ling uzra tufroq etti jismi zorim intizor.

Tun-kun afg'onlar chekib, el ichra rasvo bo'lmisham,
Qo'ymamish ishqing aro momus-u orim intizor.

♪ Notaga qarab kuylang.


SAVTI NAVO SOQIYNOMASI

Navoiy g'azali


«Navo» maqomidan


M.M. ♩ = 116





Musiqa savodi. Usullar haqidagi bilimingizni mustahkamlang.
Quyidagi usullarni «bum-bak» bo'g'inlarida ifoda eting:





Savol va topshiriqlar

- ?
1. Xorazm maqomlarining cholgʻu yoʻllari (kuylari) qanday umumiy nomlar bilan yuritiladi?
 2. Xorazm maqomlarining cholgʻu yoʻllari tarkibidan qanday nomli kuylar oʻrin olgan?
 3. «Savti Navo Qashqarchasi» aytimining ikki bayt (toʻrt misra) gʻazalini yod oling.

XORAZM MAQOMLARINING AYTIM YOʻLI

Xorazm maqomlarining ashula boʻlimi «Aytim yoʻli» yoki «Manzum» deb ataladi. Xorazm aytim yoʻllarini Shashmaqom «Nasr» boʻlimlari bilan qiyoslaganda koʻplab umumiy va oʻzgacha holatlar namoyon boʻladi. Masalan, Xorazm aytimlarida «Talqin», «Nasr» va «Ufar»lar bilan birga mahalliy ashulachilik anʼanalariga aloqador «Suvora», shuningdek, «Faryod» va «Naqsh» nomlari bilan maʼlum ashula namunalari keng oʻrin tutadi. Ammo, ayni vaqtda, «Saraxbor» atamasi umuman uchramaydi hamda uning oʻrniga (chertim yoʻlida boʻlgani singari) maqomning nomi (Maqomi Rost, Maqomi Buzruk va h.k.) ishlatiladi. Misol tariqasida har ikkala turkumning «Navo» maqomlariga oid aytim (ashula) yoʻllarini qiyoslash mumkin:

Xorazm «Navo» maqomi

Aytim yoʻli:

1. Maqomi Navo.
2. Tarona.
3. Suvora.
4. Talqin.
5. Faryod.
6. Naqsh.
7. Oraz.
8. Ufar.

Buxoro «Navo» maqomi

Nasr boʻlimi:

1. Saraxbori Navo.
2. Tarona I - II.
3. Talqini Bayot.
4. Tarona.
5. Nasri Bayot.
6. Tarona I - II.
7. Orazi Navo.
8. Tarona I - III.
9. Husayniy Navo.
10. Ufari Bayot.

Xorazm va Buxoro maqomlarini qiyoslashda davom etib, yana shuni aytish mumkinki, Xorazm «Iroq» maqomida «aytim yo‘li» ga doir ashula namunalari umuman uchramaydi. (Bu namunalar bizgacha yetib kelmagan.) Demak, «Iroq» maqomi «chertim yo‘li» dan iborat, xolos. Shuningdek, Xorazm maqomlarida ikkinchi guruh ashula turkumlariga doir «Savt», «Mo‘g‘ulcha» va ularning shoxobchalari muqim tarzda shakl topmagan.

Xorazm maqomlarining aytim yo‘llari Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Ogahiy, Munis, Avaz O‘tar kabi mumtoz shoirlarning aruz vaznli nazmiy ijodlari asosida o‘qiladi.

● Musiq tinglash.

NAVO NAQSHI

Ogahiy g‘azali

«Navo» maqomidan

M.M.  = 72



Mush-kin qo - shing - ning hay - a - ti

ul chash-mi jal - lod us - ti - na,

Qat - lim u - chun «nass» kel - ti - rur

«nun» el - ti - bon «sod» us - ti - na.




▲ Aytim.

FERUZ I

Ogahiy g'azali

M.M. ♩ = 80





Savol va topshiriqlar

- ? 1. Xorazm maqomlari aytim yo'llari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
2. «FeruZ I» she'rini yod oling.



Mustaqil o'qing.

XORAZM MAQOMLARINING ATOQLI IJROCHILARI



Komiljon Otaniyozov

Xorazm maqomlarining bizga ma'lum bo'lgan mahoratli ijrochilari bir necha avloddan iboratdir. Xususan, XIX asrda Komil Xorazmiy, XIX asr ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida esa Komil Xorazmiyning shogirdlari Xudoybergan Mo'hrkan, Matyoqub pozachi, Abdullo gulobiy, Bobojon bulomonchi, Muhammad Rasul Mirzo, Matyoqub Xarratov kabi maqomchi san'atkorlar faoliyat ko'rsatganlar. Shuningdek, XX asr davomida Matpano Ota Xudoyberganov, Matyusuf Xarratov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Matniyoz Yusupov, Ro'zimat Jumaniyozov va boshqa ustoz san'atkorlarning nomlari

Xorazm maqomlarining yetuk ijrochilari qatorida namoyon bo'ladi.

Xususan, Komiljon Otaniyozov (1917-1975) mashhur xonanda, sozanda va bastakor bo'lib, u Xorazm maqomlari aytim yo'llarini Matpano Xudoyberganov, Madrahim Yoqubov va Hojixon Boltayevlardan o'rgangan edi. Shu bilan birga u Xorazm dostonlari, qo'shiqlari hamda «Suvora» larini mahorat bilan ijro etgan. Komiljon

Otaniyozov bastakorlik bobida ham barakali ijod qilib, «Sallamno», «O‘ynar», «Ko‘ring», «Muborak», «Ayrilmasin nigoridan», «Bo‘libdur», «Netay» kabi xalq orasida keng tarqalgan ashula-qo‘shiglarni ijod etdi.



Matyoqub Xarratov



Hojixon Boltayev



Matniyoz Yusupov va Matpano Ota Xudoyberganov

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, kompozitor, sozanda va xonanda Matniyoz Yusupov (1925-1992) Xorazm maqomlarini ustoz Matpano Ota Xudoyberganovdan o‘rgandi hamda bu maqomlarni asrab qolishga katta hissa qo‘shdi. U Xorazm maqomlarini to‘liq turkum (ya’ni chertim va aytim yo‘llari) tarzida birinchi bo‘lib besh chiziqli nota tizimida yozib oldi. Shu bilan birga, Matniyoz Yusupov Xorazm xalq ashula va «Suvora» lari, qo‘shiq va laparlari, cholg‘u kuy va xalq musiqiy ijodi namunalari jamlab, «O‘zbek xalq musiqasi» notalar to‘plamining VII va IX jildlarida nashr ettirgan edi.

Kompozitorlik sohasida bir qator musiqali drama va kome-diyalar, opera («Xorazm qo‘shig‘i») va balet («Gulsanam») hamda simfonik musiqa va qo‘shiqlar («Shifokor qizi», «Dilim bilan» va b.q.) ijod etgan. Ashulachilik bobida esa Xorazm maqomlari, «Suvora» lari va xalq ashulalarining o‘ziga xos ijrochisi bo‘lgan.

FARG‘ONA – TOSHKENT MAQOM YO‘LLARI

Toshkent va Farg‘ona vodiysi shaharlari musiqiy amaliyotida joriy etilgan maqom yo‘llariga nisbatan «Farg‘ona - Toshkent maqom yo‘llari» umumlashma iborasi qo‘llaniladi. Bu turdagi maqomlar Buxoro va Xorazm maqomlaridan farqli o‘laroq, yaxlit bir turkumni tashkil etmay, balki alohida-alohida bo‘lgan cholg‘u va ashula yo‘llaridan iboratdir. Xususan, «Nasrullo I – V», «Munojot I – IV», «Ajam Taronalari», «Miskin I – V», «Segoh I – III», «Mushkiloti Segoh», «Sayqal I – II», «Mirzadavlat I – II», «Mushkiloti Dugoh», «Cho‘li Iroq» kabi cholg‘u kuylari hamda «Chorgoh I – V», «Dugoh-Husayn I – VII», «Bayot I – V», «Bayoti Sheroziy I – V», «Gulyor-Shahnoz I – V», «Ko‘cha Bog‘i I – II», «Segoh», «Toshkent Irog‘i» singari boshqa ashula yo‘llari shular jumlasidandir. Binobarin, Farg‘ona - Toshkent maqom yo‘llari tarkibida bir qismli namunalardan tortib, to besh-yetti qismdan iborat turkum asarlar namoyon bo‘ladi.

O‘tmishda Farg‘ona - Toshkent maqom yo‘llari nafaqat xon saroylarida, balki xalq hayoti bilan bog‘liq turli sharoit va vaziyat (xalq tomosha va sayillari, dorbozlar o‘yini, to‘y bazmlari, ziyoli va kosib-hunarmandlar davrasida va h.k.) larda ham mudom ijro etib kelingan. Bu holat ularning xalq orasida mashhur bo‘lishi sabablaridan biridir.



«**Nasrullo I**» kuyini tinglang.

NASRULLO I

Vazmin

Toshkent— Fargʻona maqom yoʻli



VATANGINAM

Po'lat Mo'min she'ri

Avaz Mansurov musiqasi

Vals sur'atida

Yakkaxon

Ma-nim u-chun o - lam - da-yin

Kat - ta - gi-nam Va-tan - gi-nam. Oq sut

ber - gan o - nam - da - yin. Bit - ta - gi-nam

Naqarot:

Va-tan - gi-nam. Bax - tim - ga tong — O'z-be-kis -

ton, Bax-tim - ga tong — O'z-be-kis - ton,

Xor

Bax - tim - ga tong — O'z-be-kis - ton, Bax - tim -

Yakkaxon

ga tong — O'z-be-kis - ton, Va-tan - gi-nam,

Va-tan - gi-nam, Va-ta - nim, Va-ta -

nim. nim. nim.

uchun

Manim uchun olamdayin
Kattaginam Vatanginam.
Oq sut bergan onamdayin,
Bittaginam Vatanginam.

Gul faslida ohorlarga
Aylanaqol, Vatanginam,
Qo'shig'imda ohanglarga
Aylanaqol, Vatanginam.

N a q a r o t :

Baxtinga tong – O'zbekiston,
Baxtinga tong – O'zbekiston,
Vatanginam, Vatanginam,
Vatanim...

N a q a r o t :


Vujudimga gulday mehring
O'yingmi yo, Vatanginam?
Yuraginga butun mehring
Qo'yingmi yo, Vatanginam?

N a q a r o t


Musiq a savodi. T a b i i y m a j o r t u z u g i haqidagi bili-
mingizni mustahkamlang.

1. Quyida berilgan notalardan yuqoriga qarab tabiiy major
tovushqatorlarini tuzing:

a)



b)



2. Quyida berilgan tovushqatorlardan qaysi biri tabiiy major tuzugiga mansub ekanligini aniqlang:

a)



Topshiriqlar

- ?
1. Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari haqida umumiy tushuncha bering.
 2. «Vatanginam» qo'shig'ining she'rini yod oling.



Mustaqil o'qing.

V.A. USPENSKIY



V.A.Uspenskiy va Sh.Shoumarov

Rus madaniyatining yorqin namoyandasi, taniqli musiqa etnografi va iste'dodli ijodkori Viktor Aleksandrovich Uspenskiy (1879–1949) XX asr O'zbekiston musiqa san'ati rivojiga munosib hissa qo'shdi. U Sankt-Peterburg konservatoriyasini bitirib, 1917-yili Toshkentga kelgan paytidan boshlab o'zbek xalq va kasbiy musiqasini jiddiy o'rgandi hamda ularni nota vositasida yozib olishda jonbozlik ko'rsatdi. Jumladan, 1922-yili V.A. Uspenskiy davlat va jamoat arbobi, shoir, dramaturg va olim Abdurauf Fitratning tashabbusi bilan mumtoz Shashmaqomni buxorolik ustozlar — hofiz Ota

Jalol Nosir va tanburchi Ota G'iyos Abdug'anilar ijrosida yozib oldi. Ushbu nota yozuvlari 1924-yili «Olti musiqali noma (maqom)»¹ nomi bilan nashr etildi. Bajarilgan bu mehnat natijalarini yuqori baholagan professor A. Fitrat o'z minnatdorchiligini shunday izhor etgan edi: «Qadimgi maqomlarni yig'ish va yozib olish sizga topshirilgan edi. Siz bu vazifani mohirona bajardingiz hamda Sharq musiqasini to'plab, nashr qilib, abadiylashtirish ishiga juda katta hissa qo'shganingiz uchun tashakkurnomamizni qabul qilgaysiz. *A. Fitrat*».²

V.A. Uspenskiy, shuningdek, toshkentlik atoqli hofiz Shorahim Shoumarovdan «Chorgoh», «Bayot», «Shahnozi Gulyor», «Dugoh — Husayn» kabi Farg'ona—Toshkent maqom ashula yo'llarini ham nota yozuvlarida aks ettirishga muyassar bo'lgan. Ayni paytda xalq ma'naviy hayotining ajralmas qismi bo'lgan musiqiy folklorga katta e'tibor bergan. Bu borada u o'z maqolalaridan birida shunday e'tirof qiladi: «Xalq musiqa ijodiyotini yig'ish va o'rganish ishlari madaniyat tarixining asosiy vazifalaridan birini tashkil etadi. Zero, qo'shiq ma'naviy hayotga juda yaqin bo'lgani holda, xalqning eng muqaddas tuyg'ularini ayon etadi, uning ichki olami, qiyofasi, qolaversa, turmush tarzini in'ikos etadi».

V.A. Uspenskiy Respublikamizning Xiva, Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Andijon va Marg'ilon shaharlariga, shuningdek, qo'shni Turkmaniston va Tojikiston Respublikalarining qator tumanlariga musiqiy etnografik ekspeditsiyalar uyushtirgan. Bu ilmiy-ijodiy mehnat jarayonida juda boy va qimmatli musiqa namunalari yig'ib olingan edi.

V.A. Uspenskiy o'zining kompozitorlik ijodida maqom va xalq kuylariga asoslanib musiqa asarlari yozganligi samarali bo'lgan. Xususan, u «Четыре мелодии народов Средней Азии» nomli orkestr suitasida afg'on, qozoq va o'zbek xalq ohanglarini mohirona qo'llagan bo'lsa, orkestr ijrosi uchun mo'ljallangan «Dugoh—Husayn», «Poema-rapsodiya», «lirik poema» hamda «Farhod va Shirin» musiqali dramasida maqom yo'llariga ijodiy tayangan.

¹Шесть музыкальных поэм (маком).

² А. Н. Ж а б б о р о в. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. Toshkent. 2004. 361-bet.

FARG‘ONA – TOSHKENT MAQOM CHOLG‘U YO‘LLARI



Abduqodir Ismoilov

«Farg‘ona - Toshkent maqom cholg‘u yo‘llari» xalqimizning sevimli kuylari bo‘lib, ularni «Nasrullo I - V», «Munojot I - V», «Ajam va uning taronalari», «Miskin I - V», «Segoh I - III», «Mushkiloti Segoh», «Sayqal I - II», «Mirzadavlat I - II», «Mushkiloti Dugoh», «Cho‘li Iroq», «Chorgoh», «Surnay Irog‘i», «Surnay Dugohi», «Surnay Ushshog‘i» kabi kuylar tashkil etadi. Binobarin, bu maqom yo‘llarining tarkibini bir qismli kuy namunalaridan tortib to besh qismli turkum asarlar tashkil etadi. Turkumdagi tarkibiy qismlar rim raqamlari vositasida («Miskin I», «Miskin II», «Miskin III» va h.k.) ajratiladi.

Ba‘zi turkumlarda maxsus nomlar ham uchraydi. Masalan, «Miskin I - V» cholg‘u turkumining III qismi «Adoiy», IV qismi «Asiriy» deb atalsa, «Nasrullo I - V» ning II qismi «Chapandoz», III qismi «Qashqarcha», IV qismi «Tarona» va V qismi «Ufar» deb ataladi va h.k.

Farg‘ona - Toshkent maqom cholg‘u kuylarini turli xil xalq cholg‘ularida (nay, g‘ijjak, dutor, tanbur, surnay va b.q.) ijro etish an‘anasi ham mavjud. Shuningdek, bu kuylar turli vaziyatlarda chalinadi. Masalan, surnay yo‘llari xalq tomosha va bayramlarida, dorbozlar o‘yini va to‘y bazmlarida, dutor, tanbur yoki g‘ijjak ijrolari «uy sharoitlari» da o‘tkaziladigan turli yig‘in va majlislarda namoyon bo‘ladi.

Farg‘ona - Toshkent maqom cholg‘u kuylarining ijrochilari, odatda, kasbiy musiqachilar bo‘lib, ular bu san‘atni maqomchi ustozlardan o‘rganadilar. Shu tarzda bu san‘atni bizga yetkazib bergan taniqli sozandalar qatorida Sultonxon Hakimov (tanbur), Abduqodir Ismoilov (nay), Ahmadjon Umurzoqov (qo‘shnay, surnay), Ashurali Yusupov (surnay), Shobarat tanburchi, Abdumutal Abdullayev

(tanbur), Muhiddin Hoji Najmiddinov (dutor, tanbur), Abdusoat Vahobov (dutor), Komiljon Jabborov (g'ijjak, dator, tanbur), Maqsudxo'ja Yusupov (tanbur), Saidjon Kalonov (nay), Faxriddin Sodiqov (chang, dator), G'anijon Toshmatov (g'ijjak), Turg'un Alimatov (tanbur, dator, g'ijjak), G'ulomjon Hojiqulov (g'ijjak) kabi mahoratli ijrochilar nomini alohida ta'kidlash kerak.




Musiqa tinglash.

SEGOH

M.M. ♩ = 66


Farg'ona—Toshkent maqom yo'li



NASRI SEGOH

M.M. ♩ = 116-120

Farg'ona—Toshkent maqom yo'li





△ Qo'shiq kuylash.

DUGOH-HUSAYN IV (TARONA)

Dilafgor g'azali

Farg'ona—Toshkent maqom yo'li

M.M. ♩ = 92

Kel-sang a - gar kul-bam a - ro,

bosh us - ti - na,

bosh us - ti - na, Jon bir - la

ay - g'um - dur sen-ga-ye, ye,

bosh us - ti - na, bosh us - ti-na.

Gar har na - fas

ot-sang men-ga qahr i - la

tosh, ey no - za-nin.

Yuz shavq i - la ay - g'um sen-ga

ye, bosh us - ti - na,


bosh us - ti - na.

Kelsang agar kulbam aro bosh ustina - bosh ustina,
 Jon birla ayg'umdur senga, bosh ustina - bosh ustina.
 Gar har nafas otsang menga qahr ila tosh, ey nozanin,
 Yuz shavq ila ayg'um senga, bosh ustina - bosh ustina.


 **Musiq a savodi.** T a b i i y m i n o r t u z u g i haqidagi bilimingizni mustahkamlang.

1. Quyida berilgan notalardan yuqoriga qarab tabiiy minor tovushqatorini tuzing:

a)



b)



2. Quyida berilgan tovushqatorlardan qaysi biri tabiiy minor tuzugiga mansub ekanligini aniqlang.

a)



b)



Savol va topshiriqlar

-  1. Fargʻona - Toshkent maqom yoʻllariga doir cholgʻu kuylarining nomlarini ayting.
2. «Dugoh-Husayn IV» aytimining ikki bayt (toʻrt misra) gʻazalini yod oling.

FARG‘ONA - TOSHKENT MAQOM ASHULA YO‘LLARI

Farg‘ona - Toshkent maqom ashula yo‘llari (cholg‘u yo‘llari kabi) alohida bo‘lgan bir qismli («Segoh», «Toshkent Irog‘i» va b.q.) namunalardan tortib ko‘p qismli ashula turkumlarni namoyon etadi. Ayniqsa, besh qismli ashula turkumlari ko‘proq uchraydi. Xususan, «Chorgoh», «Bayot», «Bayoti-Sheroziy», «Gulyor-Shahnoz» singari ashula yo‘llari aynan besh qismdan iborat turkumli asarlardir.



Mulla To‘ychi Toshmuhamedov

Turkum qismlarini tashkil etuvchi ashula namunalari rim raqamlari vositasida belgilanadi. Masalan, «Bayot I», «Bayot II», «Bayot III» va h.k. kabi. Ayrim hollarda esa tarkibiy qismning maxsus nomlari ham uchraydi. Jumladan, «Gulyor-Shahnoz» ashula turkumining I qismi «Gulyor», II qismi «Shahnoz», III qismi «Chapandozi Gulyor», IV qismi «Ushshoq» va V qismi «Qashqarchai Ushshoq» deb nomlanishi bunga misol bo‘la oladi.

Farg‘ona - Toshkent maqom yo‘llarida «Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubi»ga xos bo‘lgan yalla, ashula va katta ashula janrlarining xususiyatlari

□‘zgacha aks etadi. Ashula yo‘llari mumtoz she‘riyat (Sakkokiy, Navoiy, Bobur, Muqimiy, Uvaysiy, Furqat va b.q.) asosida o‘qiladi. Farg‘ona - Toshkent maqom ashula yo‘llarini o‘z ijrolari bilan yuksaltirgan maqomchi hofizlar qatorida Shorahim Shoumarov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Shojalil hofiz, Ilhom hofiz, Sodirxon hofiz, Yunus Rajabiy, Rasulqori Mamadaliyev, Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Hotamov kabi ustoz-san‘atkorlarning xizmatlarini alohida ta’kidlash kerak.



Musiqa tinglash.

DUGOH-HUSAYN I

Navoiy g'azali

Farg'ona—Toshkent maqom yo'li

M.M. ♩ = 72-76



Ey, sar - vi - noz gul-sha-ni



bo - g'i ma - lo - ha - tim.



Va gul u - zor




ma - hi - va shu sar - vi



qo - ma-tim.

La'-ling ta-



bas-sum et - di-yu, jo - nim a - sir -
dur. Shak - kar so - g'in - di,
to' - ti ka - bi
yo'q ha - lo - va - tim.

▲ **Aytim.** «Chorgoh IV» maqom aytimini uch bayt g'azal asosida kuylang.

CHORGOH IV¹



Furqat g'azali

Farg'ona—Toshkent maqom yo'li

M.M. ♩ = 64



¹Aytingning tuzuk asosi besh parda (kvinta) oralig'ida quyiga ko'chirildi.



nim me-ning.

Bo- shi- ma sav- do tu- shib, o-

shuf - ta hol o'l- may ne- tay,

Jil- va- gar bo'l- sa o'- shal ko-

kil pa- ri- sho- nim me- ning.

Oh kim, rahm aylamas holimg'a jononim mening,
Kuydi bu hasrat o'tida kuymagan jonim mening.

Yig'lamaymu gulshan zulmat aro tong otkuncha,
So'rmasa bir tun kelib sham'i shabistonim mening.

Boshima savdo tushib, oshufta hol o'lmay netay,
Jilvagar bo'lsa o'shal kokil parishonim mening.

Savol va topshiriqlar

1. Farg'ona - Toshkent maqom yo'llariga doir ashula (aytim) turkumlarining nomini ayting.
2. «Chorgoh - IV» aytimining uch bayt g'azalini yod oling.



YUNUS RAJABIY

Hassos bastakor, xonanda va sozanda, O‘zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiy (1897–1976) milliy musiqa madaniyatimiz ravnaqiga ulkan hissa qo‘shdi. Atoqli san‘atkorning komillik sari yuksalish bosqichlari dastlab madrasada an‘anaviy tahsil olish bilan boshlanib, keyinchalik Turkiston xalq konservatoriyasi (1919–1923), Toshkent oliy musiqa maktabining tayyorlov kursi (1934) hamda Moskvada tashkil etilgan kompozitorlar kursi (1940–1941) da davom etgan. Ayni paytda mumtoz musiqa namunalaridan Farg‘ona–Toshkent



Yunus Rajabiy

maqom yo‘llarini mashhur hofizlar Mirza Qosim, Shorahim Shoumarov va Mulla To‘ychi Toshmuhamedovlardan mukammal o‘rgan-di, Buxoro maqomlarini Hoji Abdulaziz Rasulov, Domla Halim Ibodov kabi zabardast maqomdonlar us-tozligida o‘zlashtirdi.

Erishgan teran bilimi va amaliy-ijodiy malakalari pirovardida Yunus Rajabiy Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llari, Shashmaqom turkumi, katta ashula, bastakorlik asarlari hamda xalq musiqa ijodiyotining turfa namunalarini nota yozuvlariga oldi va ularni besh jildlik «O‘zbek xalq musiqasi» hamda olti jildlik «Shashmaqom» to‘plamlarida nashr-dan chiqarishga muvaffaq bo‘ldi. Shu

bilan birga Yunus Rajabiy O‘zbekiston radiosi huzurida 1959-yilda Maqom ansambli ijodiy jamoasini tuzib, umrining oxiriga qadar unga badiiy rahbarlik qildi.

Yunus Rajabiy bastakorlik jabhasida xalqchil milliy uslubni ilgari surgan san‘atkordir. Xususan, uning «Fabrika yallasi», «Bizning davron», «O‘zbekiston», «Bahor keldi», «O‘yin bayoti», «O‘yin dugohi», «Paxta», «Koshki», «Kuygay», «Ra’nolanmasun» kabi ashula va raqs kuylari, ijodiy hamkorliklar natijasida yaralgan «Farhod va Shirin», «Muqanna», «Navoiy Astrobodda» musiqali dramalari hamda «Zaynab va Omon» operasida ko‘p asrlik badiiy an‘analar zamon ruhi ila qayta jonlanadi.

Yunus Rajabiy hofizlik bobida ham noyob iste'dod qirralarini namoyon etdi. U ijro etgan «Ushshoq», «Ko'cha bog'i», «Girya», «Gulyor-Shahnoz», «Bayot», «Dugoh-Husayn», «Chorgoh», «Qalandariy» kabi mumtoz ashula yo'llari xalqimiz musiqa xazinasidan munosib o'rin olgan.

O'zbek san'atining ulug' siymalaridan bo'lgan Yunus Rajabiyning ulkan xizmatlari minnatdor avlodlar tomonidan ardoqlanib, mo'tabar zot mehnati «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlandi (2000-y.), uning nomi Jizzax musiqali drama teatri, Toshkent musiqa pedagogika kolleji, Toshkentdagi markaziy ko'chalardan biri va metro bekati berildi, shuningdek, 1989-yildan buyon «Yunus Rajabiy uy-muzeyi» faoliyat ko'rsatmoqda.

USHSHOQ

Navoiy g'azali

Farg'ona—Toshkent maqom yo'li

M.M. ♩ = 76

Qo-ra ko' - zum ke-lu

mar-dum qo-ra ko' - zum ke-lu mar-dum

lug' em-di fan qil - g'il,

ko'-zum qa - ro - si - da

mar-dum ka - bi va - tan qil - g'il.

Yu-zing gu - li - ga ko'n- gul rav - za -

sin ya - sa gul - shan,

qa - ding - ni

ho - li - g'a jon gul - sha - nin cha -

man qil - g'il ey, o .

«YOVVOYI MAQOM» HAQIDA TUSHUNCHA

Farg'ona - Toshkent maqom ashula yo'llarini katta ashula uslubiga moslab aytish amaliyoti «yovvoyi maqom» deb ataladi. Bunda jo'rnavez cholg'ular va doyra usullari qo'llanilmaydi. Binobarin, «Yovvoyi maqom» iborasi «usulsiz maqom» o'rnida ham ishlatiladi. Shunga ko'ra, masalan, «Ushshoq» ashula yo'lining usulsiz (katta ashula uslubida) ijro etilishi «Yovvoyi Ushshoq», shuningdek, «Chorgoh» yo'li – «Yovvoyi Chorgoh» kabi ataladi. Ba'zan «Yovvoyi» so'zi o'rnida «Patnisaki maqom» tushunchasi ham ishlatiladi, ya'ni


«Patnisaki Chorgoh», «Patnisaki Bayot» singari. Bu borada «patnis» soʻzining qoʻllanilishi ham katta ashulaga ishora etadi, chunki katta ashulachilar ijro paytida, odatda, qoʻllarida likob yoki patnis ushlab turadilar. «Yovvoyi maqom»larda Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqimiy, Furqat, Miskin, Habibiy va boshqa mumtoz shoirlarning aruz vaznli sheʼr namunalari qoʻllaniladi.

«Yovvoyi maqom» namunalarining mashhur ijrochilari – Boltaboy hofiz, Hamroqul Qori, Mamadbobo Sattorov, Akbar Qori Haydarov, Erka qori Karimov, Joʻraxon Sultonov va boshqalardir.

● **Musiqa tinglash.** Katta ashula uslubidagi «Ushshoq» ni tinglang va uni avvalgi darsda berilgan «Ushshoq» maqom aytimi bilan qiyoslab, tavsif eting.

USHSHOQ

Navoiy gʻazali




Gʻa-ming oʻ - qi - ki koʻn-gul - lar... gʻaming oʻ -

qi-ki, koʻn- gul - lar oʻ - yin - ni sho - na qi -

lur, me-ning chu xo - ki ta - nim (o) -

- ich - ra et - ti xo - na qi - lur, jo -

ney.



O'Z YURTINGNI SAYR ETSANG

Po'lat Mo'min she'ri

Farhod Alimov musiqasi

Dadil



Salomat bo'lay deb, G'ayratga to'lay deb,



Qaddingni tu-tib g‘oz, Eh! Ma-za,qan-day soz,



Qaddingni tu-tib g‘oz, Eh! Maza,qan-day soz,



Shunday der yaxshilar, Ko'p ko'rgan ko'p bilar.



Si-lay-di sha-mol -lar, Tot-li-dir xa-yol - lar,



Si-lay-di sha-mol - lar, Totli-dir xa-yol - lar,



O'z yur - ting-ni sayr et - sang,



Qal-bing - ni say - rat sang.



O'z yur - ting - ni sayr et - sang,



Qal-bingni say-rat-sang,

Qal-bing-ni say-rat-



sang,

Qalbingni say- rat sang.

Salomat bo'lay deb,
G'ayratga to'lay deb,
Qaddingni tutib g'oz,
Eh, maza, qanday soz,
O'z yurtingni sayr etsang,
Qalbingni sayratsang.

Nur olar ko'zlaring,
Kuylanar so'zlaring.
Zavq o'ynar ko'nglingda,
Do'st uchrrar yo'lingda,
O'z yurtingni sayr etsang,
Qalbingni sayratsang.

Shunday der yaxshilar,
Ko'p ko'rgan ko'p bilar.
Silaydi shamollar,
Totlidir xayollar,
O'z yurtingni sayr etsang,
Qalbingni sayratsang.

Zehning ham toblanar,
Mehrning ham tovlanar -
Davrondan o'rgulib,
Ming yashnab, ming kulib,
O'z yurtingni sayr etsang,
Qalbingni sayratsang.

Musiqa savodi. U f a r u s u l i haqidagi bilimingizni mustahkamlang.

Quyida berilgan aytim namunasida Ufar usulining qaysi turi qo'llanganligini aniqlang hamda uni ovozda kuylab ko'rsating:

SAVTI KALON UFORISI

Bobur g'azali

«Rost» maqomidan

M.M. ♩ = 78

Kim ko'-rur

xur-shid-ni, ul moh siy-mo bo'l-ma-sa.

Kim so'-rur sha-kar-ni ul

la' - li sha - kar - xo bo'l-ma-sa.

△ **Qo'shiq kuylash.**

BAHOR MADHI

Rauf Tolibov she'ri

Nadim Norxo'jayev musiqasi

Vals sur'atida



E - sib ba-hor sha-mo - li

o-lib qo-char xa-yo - lim.

Da - la - lar - da u - cha - di

Ko'n-gil qush-lar mi-so - li.

E - sar ba-hor sha-mo - li.


E - sar ba-hor sha-mo - li.

Cha-raq - lay - di

os - mon - lar, ya-sa - nib - di

bo's - ton - lar. Da-raxt -

lar - ning sho - xi - da Gul - dan



Sochlarida tol bargak,
Qo'llarida boy chechak.
Qizlar bog'da o'ynashar
«Oq terakmi, ko'k terak»,
Sochlarida tol bargak.

Qanday go‘zal gulbahor,
Qanday go‘zal gul diyor.
Bahor yozib poyandoz
Yo‘limizga intizor,
Qanday go‘zal gul diyor.

Takrorlash uchun topshiriqlar

1. Xorazm maqomlarining nomlarini ayting.
2. Xorazm maqomlarining «Chertim yo‘li» haqida ma‘lumot bering.
3. Xorazm maqomlarining «Aytim yo‘li» tarkibini Shashmaqomning «Nasr» bo‘limi bilan qiyoslab gapiring.
4. Xorazm maqomlarining taniqli ijrochilari haqida qisqacha ma‘lumot bering.
5. Farg‘ona - Toshkent maqom yo‘llariga doir umumiy tushuncha bering.
6. Farg‘ona - Toshkent maqom cholg‘u yo‘llari haqida tushuncha bering.
7. Farg‘ona - Toshkent maqom aytim yo‘llari xususida ma‘lumot bering.
8. Chorak davomida o‘rganilgan qo‘shiq yoki maqom aytimlaridan 2-3 namuna kuylab bering.
9. «Bahor madhi» qo‘shig‘ini yod oling.

10. *T a r o n a* — qo‘shiq, ashula ma’nolarini bildiradi. Maqomlarda asosiy aytim yo‘llari (Saraxbor, Tani maqom, Talqin, Nasr va b.q.) orasida qo‘llaniladigan va bir aytimdan ikkinchi asosiy aytinga o‘tishda bog‘lovchi «vazifasini bajaruvchi» ixcham shaklli ashula. Ko‘proq ruboiylar bilan aytiladi.
11. *Chertim yo‘li* — Xorazm maqomlarida cholg‘u kuylari bo‘limining umumiy nomi. Mazkur bo‘lim «mansur» deb ham yuritiladi.
12. *C h o r g o h* — to‘rt joy, to‘rt o‘rin, to‘rt parda; qadimda to‘rt pardaga asoslangan ma’lum kuy nomi. Farg‘ona–Toshkent maqomlaridan mashhur («Chorgoh I-V») aytim va cholg‘u kuylarining nomi.

MUNDARIJA

Soʻzboshi	3
Oʻzbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi	4

I CHORAK

SURXONDARYO - QASHQADARYO, SAMARQAND - BUXORO VOHALARINING MUSIQIY USHLBLARI

Surxondaryo - Qashqadaryo musiqa uslubi haqida tushuncha	6
Mehnat qoʻshiqlari	13
Surxondaryo - Qashqadaryo dostonchilik anʼanalari	19
Buxoro - Samarqand musiqa uslubi haqida tushuncha	27
Sozanda sanʼati	35
Mavrigi janri	40
Buxoro - Samarqand dostonchilik anʼanalari	46

II CHORAK

FARGʻONA - TOSHKENT VA XORAZM VOHALARINING MUSIQIY USHLBLARI

Fargʻona - Toshkent musiqa uslubi haqida tushuncha	53
Yallachilik sanʼati	61
Xalq ashulalari	64
Xorazm musiqa uslubi haqida tushuncha	71
Xorazm dostonchilik anʼanalari	79
Xalfa sanʼati	85
Xorazm ashulachilik sanʼati	88

III CHORAK

SHASHMAQOM

Maqom haqida tushuncha	96
Oʻn ikki maqom	100
Shashmaqom	103
Shashmaqom cholgʻu (mushkilot) kuylari	107
Shashmaqom aytim (nasr) yoʻllari	112
Hoji Abdulaziz Rasulov.....	117
«Saraxbor» aytim yoʻllari	118
«Talqin» va «Nasr» aytim yoʻllari	122
Ota Jalol Nosir.....	128

IV CHORAK

XORAZM MAQOMLARI. FARGʻONA–TOSHKENT MAQOM YOʻLLARI

Xorazm maqomlari	131
Xorazm maqomlarining chertim yoʻli	136
Xorazm maqomlarining aytim yoʻli	142
Fargʻona - Toshkent maqom yoʻllari	147
Fargʻona - Toshkent maqom cholgʻu yoʻllari	153
Fargʻona - Toshkent maqom ashula yoʻllari	158
«Yovvoyi maqom» haqida tushuncha	165

Oqilxon Ibrohimov, Jamil Sadirov

MUSIQA

7-sinf uchun darslik

Qayta ishlangan 4-nashri

Muharrir *M.Yoʻldosheva*

Musavvir *Sh.Odilov*

Badiiy muharrir *A.Bobrov*

Texnik muharrir *T.Smirnova*

Musahhih *F.Ortiqova*

Kompyuterda sahifalovchilar: *B.Ashurov, A.Sulaymonov*

IB № 4535

Bosishga 10.05.2007-y. da ruxsat etildi. Bichimi 60 x 90¹/₁₆. Tayms garnitura. Ofset bosma. 11,0 shartli bosma toboq. 12,5 nashr bosma tobogʻi. Jami nusxa. 3-2007 raqamli shartnoma. ... raqamli buyurtma.

Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligining Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129. Toshkent. Navoiy koʻchasi, 30.

100128. Toshkent. Usmon Yusupov koʻchasi, 86.

Respublika maqsadli kitob jamgʻarmasi hisobidan maktab kutubxonasi uchun chop etildi. Bepul.